



Vatan yagonadir,
Vatan bittadir!

www.tongyulduzi.uz

2011-yil
12-sentabr
N:36-37
(66837-38)

yulduzi

ISSN - 2010-6092

Gazeta 1929-yil 1-avgustdan chiqa boshlagan

O'zbekiston Respublikasi bolalar va o'smirlar gazetasi

YULDUZLAR SAFIDAMIZ!



Kuni kecha azim poytaxtimiz Toshkent yana bir nufuzli xalqaro musobaqaga mezbonlik qildi. Muhtasham «Universal» sport saroyida bir hafta davomida dunyoning 18 davlatidan kelgan 28 nafar eng kuchli badiiy gimnastikachilar mahorati sinovdan o'tkazildi.

Davomi 2-betda

Surxondaryo viloyati, Termiz shahrida joylashgan 12-sonli «Mehribonlik uyi» negizidagi umumta'lim maktabi o'quvchilari bu yil ham «Tong yulduzi»ga obuna bo'lishda peshqadamlikni qo'ldan berishmadi.

Siz-chi, aziz o'quvchilar, obuna mavsumi boshlanganini eshitdingizmi? Unda, shoshiling, sevimli nashringizga obuna bo'ling!

Nashr ko'rsatkichi: 198.

DIQQAT! DIQQAT! DIQQAT!

«TONG YULDUZI» HAMMAMIZ UCHUN SEVIMLI GAZETA!

Qadrlil bolalar!

Mamlakatimizda bolalarning barcha nashrlariga «Obuna - 2012» mavsumi boshlandi. Shu jumladan, Sizning «Tong yulduzi» gazetangizga ham kelasi yilga obuna bo'lishingiz mumkin. Gazetangiz 2012-yilda yanada qiziqarli, rang-barang, mazmunli, voqealarga boy maqola va xabarlar, she'r, ertak va hikoyalar bilan chop etiladi. U sizga eng yaqin do'st, maslahatchi vazifasini o'taydi.

«Obuna - 2012» mavsumini eng yuksak darajada o'tishini ta'minlab, «Tong yulduzi», «Klass», «Gulxan», «G'uncha» nashrlari bo'yicha eng ko'p obunani uyushtirgan maktab, litsey, kollejlarga «O'zbekiston» nashriyot-matbaa ijodiy uyi quyidagi mukofotlarni ajratdi:

1. Maktab, litsey va kollejlarga:

- 1- o'rin - 2 dona kompyuter;
- 2- o'rin - 3 dona televizor;
- 3- o'rin - 3 dona DVD pleer.

2. «Obuna - 2012»ni tashkil etishda faol ishtirok etganlarga:

10 dona dikt fon.



ALISHERNING
OTASI

Shavkatli mamlakatimizning go'zal poytaxtida Alisher Navoiyning ulug'vor haykali bor. Ulug' daho shoir qo'lida aso tutgan holda tabassum bilan poytaxtga kirib kelayotganga o'xshaydi. Mustaqilligimizning dastlabki kunlarida Prezident Islom bobomizning tashabbusi va rahnamoligida bunyod etilgan Milliy bog'da o'rnatilgan bu haykalga boqqaningizda, qalbingiz faxr va iftixor tuyg'ulariga to'ladi. Millat, yurt uchun xizmat qilganlarning nomlari hamisha ana shunday ardoqda bo'ladi.

Aziz bolalar! Men ana shu zotning padari buzrukvorlari haqida so'zlamochiman. Albatta, bu siz uchun ham qiziqarli bo'lsa kerak. Zero, Alisherning ulug' daho darajasiga yetishida u zotning xizmatlari beqiyos bo'lgan.

KICHIK
BAXSHI

Alisherning otasi Amir Temurning ish yurituvchi ma'murlaridan biri bo'lib, juda ko'p dostonlarni yoddan bilgan. Ovoz shohir va shirali bo'lgan bu zot she'r o'qiganda, mahliyo bo'lib tinglaganlar. Shu bois uni shoir, deb hurmat ham qilganlar. Bu inson yana «kichik baxshi» deb atalgan. Ilmi va fozil odam bo'lgani bois, o'g'li Alisherning tarbiyasiga yoshligidan e'tibor bergan.

G'YOSIDDIN
KICHKINA

Alisherning shavkatli padari buzrukvorlari ana shu e'tiborli nom bilan mashhur bo'lgan. U 1453-yilda Sabzavorga hokim etib tayinlanadi. Uning davrida shahar atrofi bog'zor va hosildor ekinzorlarga aylanadi. Tez-tez xalqning ahvolidan xabar olib turar, beva-bechoralarga yordam berar, kambag'al xonadonlarning soliqlarini o'z hisobidan to'lab yuborar edi.

O'zi shaharga qozi etib tayinlangan mulla Abdulvohob, olim-u fuzalo Darvesh Mansur, musiqachi Xo'ja Yusuf Burhon, Yahyo Sebak va boshqalar bilan shahardagi vaziyat, xalq hayoti, san'atga oid suhbatlar o'tkazib turar edi. Shu bilan birga, uchchala o'g'li – bosh farzand Bahlulbek, Alisherbek va kenjatoy Darveshalibekning ta'lim-tarbiyasiga ham yetarli e'tibor qaratar edi. Shahardagi Chinorli madrasasining ilmi toliblari holidan xabar olib, ularning yashash sharoitlari bilan tanishar, olayotgan saboqlari bo'yicha savol-javoblar ham qilar edi.

G'iyosiddin Kichkina deganlarida, bu ma'rifatli va adolatparvar insonni xalq hamisha e'zozda tutar, hurmatini joyiga qo'yishardi. U 1457-yilda vafot etadi. Bu paytda Alisherbek 16 yoshga qadam qo'yayotgan edi...

Umida JUMAYEVA,

Muzrabot tumanidagi Yangibod qishloq va o'rmon xo'jaligi kasb-hunar kolleji tarix o'qituvchisi

Boshi 1-betda

YULDUZLAR
SAFIDAMIZ!

Xalqaro gimnastika federatsiyasi, O'zbekiston gimnastika federatsiyasi hamda Madaniyat va sport ishlari vazirligi hamkorligida tashkillashtirilgan Jahon kubogi bosqichi hamda «Harru Saravan» xalqaro turniri yuksak darajada o'tkazildi. Unda Germaniya, Janubiy Koreya, Finlyandiya, Rossiya, Ozarbayjon, Polsha, Yaponiya, Meksika, Bolgariya, Latviya, Estoniya kabi davlatlarning nafasat malikalari o'zaro bellashdilar. Quvonarlisi, bu ro'yxatlar qatorida bizning terma jamoa vakillarimiz ham bor. Ulyana Trofimova, Jamila Rahmatova, Zamira Sanaqulova, Aziza Mamajonova, Husniyabonu G'ulomova singari o'smir qizlarimiz yurtimiz nomini dunyoga tanitishdi. Mazkur nufuzli turnimning ahamiyatli tomoni shundaki, u sportchilarimiz uchun joriy yilning 17-sentabrda Fransiyada o'tadigan jahon chempionati oldidan tayyorgarlik vazifasini ham o'tadi.

Sport bayramida hamyurtlarimizdan Anastasiya Serdyukova ko'p kurash va bulavada mashq bajarishda kumush lenta bilan namoyish etgan ajoyib harakati evaziga bronza medalini qo'lga kiritdi. Ayni paytda ko'p kurash bellashuvlarida rossiyalik Yuliya Sinitsina g'oliblikni qo'lga kiritgan bo'lsa, Belarus terma jamoasi vakili Yelena Bolotina uchinchi o'rin sohibasiga aylandi.

Navbatdagi yirik musobaqa yakunlandi. Ko'p kurash birinchiligida shohsupaning yuqori pog'onasini rossiyalik sportchi Darya Dmitriyeva egallagan bo'lsa, uning hamyurti Aleksandra Merkulova ikkinchi natijani qayd etdi. Belorusiyalik Lyubov Cherkashina uchinchi o'rinda da'vogarlik qildi. Yulduzli to'rtlikni esa mamlakatimizning mashhur sportchisi Ulyana Trofimova yakunlab berdi.

Ma'mura MADRAHIMOVA

«OLTIN»NI QO'LDAN CHIQARMANG

Aziz bolajonlar!

Eng ulug', eng aziz bayramimiz – Vatanimiz Mustaqilligining 20 yilligi arafasida juda ko'p quvonarli voqealarning shohidi bo'ldik.

Yigirma yil ichida jonajon O'zbekistonimiz qaddini rostlab oldi. Eh-he, ulkan yutuqlarimiz haqida soatlab gapirish mumkin. Birgina ta'lim sohasini olaylik.

Prezident bobongiz sizlarning baxt va kamolingiz uchun hech narsani ayamalikni ustuvor vazifalardan biri qilib qo'ygan.

Bugun mamlakatimizning eng chekka qishloqlarida ham qad ko'targan zamonaviy maktab, litsey va kasb-hunar kollejlari o'quvchilarning ta'lim olishlari va kasb-hunar egallashlari uchun barcha sharoitlar muhayyo

qilingan. Bu, aziz bolalar, Sizga bo'lgan g'amxo'rlikning amaliy ifodasidir.

Sport sohasida tengdoshlarimizning erishayotgan yutuqlarini ko'rib, yanada quvonaymiz. Bu to'g'rida yil bo'yi gazetamizda xabar, laha, maqolalar berib bordik.

Biz siz, bolalar va o'smirlarga havas bilan qaraymiz. Tanishimiz Nodir bobo: – Nexaram, sen eng yaxshi zamonda yashayapsan, bu – oltin davr, uni qo'ldan chiqarma! – dedilar. Sening bugungi bolalik davring, haqiqatan oltinga qiyos etgulik palla. Qarshingda «Men nima

qilishim kerak?» degan savol ko'ndalang bo'lsa, ilm olib, yaxshi tarbiya topsang, shuning o'zi yetarli, deymiz.

Sen «Afrosiyob»ni ko'rding. Zamonaviy poyezd. Juda ko'p chet ellik mehmonlar unga havas bilan boqishdi. Maksimal tezligi 250 kilometr soatni tashkil etuvchi «Afrosiyob» Toshkentdan Samarqandgacha bo'lgan 344 kilometrlik masofani 2 soatda bosib o'tdi. Naqadar katta qulaylik bu.

Elektropoyezd 2 lokomotiv, 8 yo'lovchi vagoni va 1 ta restoran-dan iborat. Nogironlar va imkoniyati cheklangan yo'lovchilar uchun


ham maxsus qulayliklar ko'zga tutilgan.

«Afrosiyob» yo'lovchi elektropoyezdining ilk yo'lovchilari Samarqand shahrida bo'lib o'tgan «Sharq taronalari» 8-Xalqaro musiqa festivali ochilishiga bag'ishlangan tadbirda ishtirok etdilar. Shodiyona bayramga ulanib ketdi.

Sen shunday ajoyib Vatanda yashayapsanki, bu yurtning bir ko'rishni havas qilganlarning son-sanog'i yo'q. Bunday shavkatli yurtning ertangi egalari qanday bo'lishlari kerak? Kuchli, bilimli, dono va albatta, baxtli-saodatli bo'lishlari lozim.

Yo'ling oydin bo'lsin, o'smir!

To'liqin HAYIT



«Mustaqillik madhi bolalar ijodida» tanloviga

ISTIQLOLING BOQIY
BO'LSIN, ONA YURT!

Men tilayman har tong sening baxtingni,
Istiqloling, sharafingni, shahdingni,
Olloh qurgan baland qilib taxtingni,
Lozim bo'lsa jonim beray, jonim yurt,
Istiqloling boqiy bo'lsin doim, yurt!

Tinchlik so'zin yuraklarga bitgansan,
Bayrog'ingni ko'kda baland tutgansan,
Bu kunlarni juda uzoq kutgansan,
So'ra, senga jonim beray, jonim yurt,
Istiqloling boqiy bo'lsin doim, yurt!

Kamolingni ko'ray deya yoshlarni,
Qovushtirding necha-necha boshlarni,
Qo'y, eslama ko'zdan oqqan yoshlarni,
Jonim, senga jonim beray, jonim yurt,
Istiqloling boqiy bo'lsin doim, yurt!

Gulsara ASHUROVA,
Qashqadaryo viloyati, Yakkabog' tumani

Sardorbek Safarov Hamza tumanidagi 206-maktab o'quvchisi. U olti yoshidan she'rilar, hikoyalar yoza boshlagan. «Lola», «Asrang», «Muhimi» kabi hikmatli hikoyalarda yosh ijodkorning hayotga bo'lgan qarashlari aks etadi. Uning hikmatli so'zlarida ma'nolar majmui mujassam.

Ijodga qiziqishida ustozlari – onasi Dilorom Yusupova, Muqaddam opa, Sanobar Ahmedova, Intizor Samandarovaning hissasi katta. Buning uchun Sardorbek ulardan behad minnatdor. Quyida tengdoshingizning hikmatlaridan o'qing va o'zingizga tegishli xulosa chiqaring.

TILAK

Azizlar, doimo yaxshilik qilib ya-
shang, zero, yaxshilik umrbod
qolguvchi va o'rnak bo'lguvchi
ne'matdir!

Eski xatolardan xulosa
chiqarib, bo'lajak xatolarni
qilmaslikka harakat qilinsa, xatolar
soni kamayib boradi.


KAMTARLIK

Gapirishni bilgan – bir hissa
baraka topadi, eshitishni bilgan –
o'n hissa!

KITOB

Meni bir fikr juda ko'p o'yantiradi: har birimizning hayotimiz ikki yoki hech bo'lmaganda uch jildlik kitobga o'xshaydi. Har bir umr hikmat va ibrat bobida bir-biridan qolishmaydi. Demak, kitoblarni o'qigan kitobxonning vaqti ham behuda ketmaydi! Dunyoda necha-necha milliardlab insonlar istiqomat qiladilar. Ularning umri kamida bir jildlik kitobga qiyos qilinganda ham osmonga yetgulik darajada baland bo'ladi. Ularni o'qish uchun esa, eh-he, qancha vaqt kerak bo'ladi... Shunda o'ylab qolaman, yaxshi ham hamma kitob yozishni bilmaydi!

Sardorbek SAFAROV,
poytaxtimizning Hamza tumanidagi
206-maktab o'quvchisi

DADIL QADAMLARING
MUBORAK, YURTIM!

Ota-ona endi atak-chechak qila boshlagan farzandining mustaqil qadamlarini quvonch va hayajon bilan kuzatgani kabi ajdodlarimiz ruhi mustaqil diyorumizning dadil qadamlaridan shod bo'layotgan bo'lsa, ne ajab?! Ko'hna va boy merosli yurtimizning rivojlanish va o'sishida bardavom kelajagi hali oldinda.

Uning son-sanoqsiz istiqbol bayramlarini bundan-da, shukhli tarzda tantana qilamiz. Mustaqil ona O'zbekistonim, oqko'ngil insonlar yashaydigan jannatmakon yurtim, ko'rk-u jamolingga ko'z tegmasin. Istiqololing bayramini asrlar osha nishonlaylik! Istiqol quyoshi porlab turgan Vatanimizdan ayyomlar, tantanalar arimasin!

Xolida MUHAMMADIYEVA,
Surxondaryo viloyati, Sariosiyo tumani

BIRINCHILARDAN
BO'LDIM...

«Tong yulduzi»ning doimiy obunachilaridanman. Sevimli gazetamizning o'tgan yilgi sonlaridan birida «Onam haqida so'z» nomli maqolam e'lon qilindi-yu, unga bo'lgan ixlosim yanada ortdi. Tengdoshlarim ijodidan ilhomlanib, o'zim ham mitti she'rilar, hikoyalar yozyapman. Bu yil ham birinchilardan bo'lib sevimli nashrimga obuna bo'ldim.

Quyida ijodimdan namuna yo'llayapman, uni gazeta sahifalarida o'qisam, behad mamnun bo'lardim.

SALOM, MAKTAB!

O'tdi ta'til, o'tdi yoz,
Sho'xlik ham qildik biroz.
Qaytdik maktab bag'riga,
Bilim olish bizga xos.
Ulg'aydik biz bir yoshga,
Ko'p aql to'ldi boshga,
Endi bilim olamiz,
Muhrlagandek toshga.
Bir kun ochamiz albat,
Ilm-u ma'dan konini.
Va jahonga yoyamiz,
O'zbekiston nomini!

Dinoraxon SULTONOVA,
Xorazm viloyati, Qo'shko'pir tumanidagi
18-umumta'lim maktabining 6-«A» sinf
o'quvchisi

KIMNING XATI
CHIROYLI?

O'tgan o'quv yili yakunida maktabimizda boshlang'ich sinf o'quvchilari o'rtasida tasviriy san'at fanidan ijodiy ishlar tanlovi bo'lib o'tdi. Unda men ham qatnashdim. Biz Vatani, ona tabiat, kasblar, bayramlarga oid rasmlar chizdik, ertak qahramonlarini aks ettirdik. Eng yaxshi rasm chizgan o'quvchilarga maktabimiz direktori Dilfuza opaning o'zlariga sovg'alar ulashdilar, «Faxriy yorliq» bilan taqdirladilar. Men «Zumrad shaharchadagi sarguzashtlar» ertagiga ishlagan rasmim uchun yumshoq o'yinchoq, albom va flomaster bilan taqdirlandim. Chizgan rasmlarimizdan tashkil qilingan ko'rgazmani yig'ilganlar maroq bilan tomosha qilishdi.

«Eng chiroyli yozuv», «Eng namunali daftar» tanlovlarida esa yil davomida tutgan daftarlarimizni, o'z xattotlik san'atimizni namoyish etib, o'zaro bellashdik va yana ko'plab sovg'alar oldik.

O'quvchilarning bilim olishga bo'lgan ishtiyoqini yanada oshiradigan bunday ibratli tadbirlarni bu yil ham o'tkazishni rejalashtiryapmiz.

Mubinaxon NIZOMXO'JAYEVA,
Toshkent shahridagi 228-maktabning 2-«G» sinf o'quvchisi

CHALINMOQDA QO'NG'ITROQ

Madina Qosimxo'jayeva Namangan viloyati, Chortoq tumanidagi 30-maktabning 8-«A» sinfini muvaffaqiyatli yakunladi. U akasi Behzod Qosimxo'jayev bilan birgalikda tahriyatimizga maktub yo'llabdi.

Madina yozgan she'rning mavzusiga moslab Behzod rasm chizibdi.

Shoshib oqqan shalola bo'lib,
Bolalikni ortda qoldirib,
Yuraklarni larzaga solib,
Chalinmoqda qo'ng'itroq!

Ma'rifatning koshonasida,
Orzularning ostonasida,
Yoz oyining nihoyasida,
Chalinmoqda qo'ng'itroq!



«XATLAR SHARHI»NI O'QIB...

Men Andijon shahar, Bo'ston dahasidagi 6-umumta'lim maktabida tahsil olaman. Bo'sh vaqtlarimda she'riy, tarixiy, adabiy kitoblarni mutolaa qilishni yaxshi ko'raman. «Tarixsiz kelajak yo'q» deganlaridek, men ham moriyda bo'lib o'tgan voqealar, hodisalarni katta qiziqish bilan o'rganaman. «Tong yulduzi» gazetasidagi maqola-yu she'rlarni o'qib, tengdoshlarimga havasim ortgandan-ortaveradi. Fahrriyatga bir necha she'rlarimni yuborgandim. «Xatlar sharhi»da ba'zi tengdoshlarimniki kabi she'rlarim ham anchayin bo'shligini bilib qoldim. Shu bois ham she'rlarim ustida qayta ishlamoqchiman. Barchaga birdek ma'qul bo'ladigan she'rlar yozish uchun ijod qilishdan aslo to'xtamayman. Chunki qanchalik ko'p izlansak, o'qisak, qalamimiz shunchalar ko'p charxlanib boraveradi.

Mohiro'yo BILOLIDDINOVA

HAR SO'ZNING O'Z O'RNI BOR



Gazetani doimo kuzatib boramiz. Meni ko'proq o'z ona tilimizga oid mavzular qiziqtiradi. Siz, aziz o'quvchilarni notqlik san'atini mukammal egallashingizni istayman.

Tilimiz nihoyatda boy, go'zal, serjilo. Bu tilda har qanday fikrni ifoda etish mumkin. So'zning o'z o'rni, vazni, bo'y-basti, o'lchovi, hajmi, hidi bor. Uni didi borlarga teran anglaydi.

«Tinchlik» dunyoda odamlarga quvonch, baxt, osoyishtalik, farovon hayot baxsh etsa, «urush» vayronalik, azob-uqubat, g'am-g'ussa olib keladi. Ikkisi ham bittadan so'z, lekin mohiyati o'zgacha. «So'zdan qudratli qurol yo'q», deb behuda aytishmaydi.

Bir shoh saroyida xizmat qiluvchi

vazir, ya'ni notiq vafot etgach, o'rniga shogirdini tayinlashmoqchi bo'lishibdi. U esa: «Menga bir yil muhlat beringlar, ustozimning kitoblarini o'qib-o'rganaman», debdi.

Oradan bir yil o'tib, odamlar uning huzuriga kelishibdi. Yigit ularni sahroga, qushlar g'ujg'on o'ynayotgan daraxt yoniga boshlab boribdi. Odamlardan cho'chigan qushlar havoga ko'tarilibdi. Yigit xafa bo'lib, yana bir yil muddat so'rabdi, xullas, bu holat uch yil takrorlanibdi.

Odamlar: «Nima gap o'zi?» deb so'rashibdi.

Shogird: «Men yovvoyi qushlarni o'zimga rom etolmayapman-u, qahri qattiq odamlarning ko'nglini qanday yumshataman», degan ekan.

Har so'zning o'z o'rni bo'lgani-dek, har kasbning ham o'z sohibi

bo'ladi. So'z sohibi bo'lish esa eng ulug' daraja, eng ulug' vazifa.

«Ahvoling yaxshimi?» so'raydi qizcha. Dugonasi esa: «Nishtyak!» deb javob beradi. Biz bee'tibor o'tib ketamiz. Aslida unga tanbeh berish insoniylik burchimiz. «Rahmat, dugonajon, ahvolim yaxshi», deb javob berish shunchalik qiyinmi?

«Ostonovkada to'xtating», deya murojaat qiladi yo'lovchi. «Bekatda to'xtating», deyish odobsizlik sanaladimi?

«Morojenoye olib bering», deya xarxasha qiladi qizcha. «Morojenoye emas, muzqaymoq», deya tanbeh berish shunchalik qiyinmi?!

Tilimizning nufuzini oshirish uchun har bir so'zni mo'tabar bilib, ularga nisbatan jiddiy munosabatda bo'laylik.

Lobar MARDONOVA

YANGI MAKTAB YUTUQLARI

Buxoro viloyati, Qorako'l tumanidagi 52-ixtisoslashtirilgan umumta'lim maktabining ochilishi nafaqat tuman o'quvchilarini, balki viloyat ahlini ham behad quvontirdi. Chunki maktabda viloyatning turli tumanlaridan kelgan o'quvchilar tahsil oladilar. Ayni paytda bu dargohda 506 nafar o'quvchiga 60 nafar ustozlar ta'lim-tarbiya bermoqdalar.

Fan to'garaklari, kuni uzaytirilgan guruh mashg'ulotlari o'quvchilarning bilimlarini yanada mustahkamlamoqda.

Mazkur maktabning barpo qilinganiga hali hech qancha vaqt bo'lgani yo'q. Shunga qaramay o'quvchilar katta yutuqlarni qo'lga kiritishyapti.

– Viloyat miqyosida o'tkazilgan «Bilimlar sinovi»da olti nafar o'quvchi g'olib bo'lib, respublika bosqichida ishtirok etdi. 9-sinf o'quvchisi Bobur Abdug'afforov kimyo, 9-sinf o'quvchisi Feruz Yusupov informatika, 8-sinf o'quvchisi Eldor Hasanov, 9-sinf o'quvchisi Sevara Jumayeva matematika fanlaridan eng kuchli ekanliklarini isbotlashdi, – deydi maktabning ona tili va adabiyot fani o'qituvchisi Malika opa Saidova. – Bu kabi yutuqlarimiz juda ko'p. Kelgusida bundan-da bilimdon, iqtidorli o'quvchilarni kamol topishida bor mahoratimizni ayamaymiz...

Mashaqqatli va sharaflı ishingizda Sizga va barcha ustozlarga omad tilaymiz. Yangi o'quv yilingiz muborak bo'lsin!

O'z muxbirimiz



Kichik tadbirkor

Gulnoza uchun bu yil quvonchlarga boy bo'ldi. «Buyuk va muqaddassan, Mustaqil Vatan!» shiori ostida poytaxtda o'tkazilgan hunarmandlar ko'rgazmasida «Eng yosh hunarmand» nominatsiyasini qo'lga kiritdi va «Faxriy yorliq» bilan taqdirlandi.

YOSH HUNARMAND GULNOZA

U respublika qo'g'irchoqlar festivalining shahar bosqichida birinchi o'rin sohibasi bo'ldi.

«Qo'li gul yosh ijodkor hunarmand» tanlovida «Eng chiroyli ko'rgazma» egasi nomini oldi va shahar «Kamolot» yoshlar ijtimoiy harakatining Diplomi bilan taqdirlandi.

Kamoliddin Behzod nomli Milliy rassomlik va dizayn instituti talabasi Gulnoza Asranova o'quvchilarning yozgi ta'til kunlarida aslo tinmadi. «Mohir qo'llar» to'garagini tashkil etib, uka va singillariga bichish-tikish va qo'g'irchoqlar yasashdan saboq berdi. Mirzo Ulug'bek tumanidagi 112-, 222-, 256-, Chilonzor tumanidagi 28-, 173-maktab o'quvchilari to'garakning eng faol a'zolari bo'lishdi. Shu sababdan ham ularning yozgi ta'tillari mazmunli o'tdi.

Tinib-tinchimas opangiz Gulnoza poytaxtimizdagi Charx Kamolon hamda Navro'z mahallalaridagi kam ta'minlangan oila farzandlaridan vaqtini, bilganlarini ayamay, hunar o'rgatib kelmoqda.

Hunarni e'zozlab, mahoratini yanada oshirib borayotgan Gulnoza opangizning ishlari, turmush tarzi siz, aziz bolajonlar uchun ibratdir.

OLMOS



Suratlar muallifi: F. SHOYODGOROV

TONG MANZARASI

G'unchalar labida uxlaydi shabnam,
Arilar ishini boshlab bo'lganlar.
Qushlar sho'x kuylashar hayot qo'shig'in -
Bu holatni ular odat qilganlar.

Atirgullar xuddi go'zal malika,
Quyoshjonga mamnun kulib turibdi.
Daraxtlar shoxida durlar ilingan,
Bolalar mahliyo bo'lib yuribdi.

Maftuna IBROHIMOVA

MENING YURAGIMDAN

Mening yuragimdan boshlanar bahor,
Qor ketdi, jonimni yomg'irlar quchdi.
Bahor xabarini ayigani oshkor,
Qalbidan qalblarga turnalar uchdi.

Bugun ko'kka boqib qoldim sarosar,
Xazonda g'amim ko'p aytgim kelmoqda.
Mening yuragimdan uchgan turnalar,
Mening yuragimga qaytib kelmoqda.

Dilnoza TILLABOYEVA,
poytaxtdagi 206-umumta'lim maktabi
o'quvchisi



ISTIQLOL MADHI

Tamaddun kezadi tevaragimda,
Chamandek porlaydi ezgu g'oyalar.
Ko'zlarda yosh emas, baxt indirgan nam,
Hurlik o'zaniga tinmay quyular.

Bu shunday o'lkaki - iqboli porloq,
Boshida charx urar oltin Humosi.
Kurrai zaminda u misli mayoq,
Baxtdan aylanadi yer-u samosi.

Har bir zarrasida bor minglab hikmat,
Bunda toshlardan ham chechak unadi.
So'ngsiz ko'priklari, ko'shklari bisyor,
Jannatga evrilgan Vatan quradi.

Istiqlol baxsh etgan damlar ne'matin,
Ko'zlarga to'tiyo etsak arziydi.
Eh, shunday kunlarni o'sha xalqparvar
Cho'lpon, Fitratlar ham ko'rsa qaniydi!

Qani, chorpoyada yastanib o'ychan,
Qodiriy tonglarga ulab tunlarni.
Bugunning sururi tutqazib qalam,
Bitsaydi farahbaxsh «Yangi kunlar»ni...

Shundayin minglarga armon bu damlar,
Ozod kelajakning umid epkini.
Aying, qay tarozi ko'tara olar,
Mezoni bormikan erkning qadrini?

Munavvar tonglarning nasimin tuyib,
Sokin uyg'onmoqning o'zi baxtmasmi?!
Shu munis Vatanni bir umr suyib,
Ishqqa chulg'anmoqning o'zi baxtmasmi?!

Dilafroz XUDOYBERDIYEVA

JONIMSAN, VATAN!


Jahon ichra jahonsan, ey, mardiyon,
Bu dunyoda yagonasan, bog'i bo'ston.
Yuragimda yashab turgan sen, ey, oshyon,
Jannatmakon bir o'lkasani, O'zbekiston!
Bu kunlarga kimlar yetgan, kim yetmagan,
Bobolarning she'rilarida bu aks etgan.
Qancha inson armon bilan o'tib ketgan,
Baxtimizga ko'z tegmasin, O'zbekiston.
Muqaddassan, muqaddassan, hur guliston!

Sojida MUXTOROVA,
Farg'ona viloyati, Marg'ilon shahri
Jahon otin Uvaysiy nomidagi adabiyot
to'garagi a'zosi

KAPALAK

Kapalak gulzorda,
Uchib yuribdi.
Har gulni bittalab,
Quchib yuribdi.
Kun bo'yi gullardan,
Ozuqa olar.
Uning shirasidan,
Tez to'yib qolar.
Bir gul chiroyiga,
Mahliyo qoldi.
Shunda kimdir ortidan,
Unga chang soldi.
Beozor kapalak,
Qo'rqibdi yomon.
Zumda qanot qoqdi,
Uyiga tomon.
Quyosh chiqib, tong otdi,
Chiqmasmish hamon...

Muhriddin YAXSHILIQOV,
Jizzax viloyati, G'allaorol tumanidagi
81-maktabning 6-sinf o'quvchisi



O'ZBEKISTON BOLALARI

Adirlarni yasantirgan maysalari,
Tongda qutlab ochilgay gul-lolalari.
Chaman bilan o'ralgan shu hur Vatanda,
Baxtli yashar O'zbekiston bolalari.

Hech kimdan kam emas axir bugun ular,
Boshi uzra ziyo sochgan quyoshi bor.
Ne qilsa ham yurt iqboli uchun qilgan,
Oqil, odil, adolatli Yurtboshi bor.

Daholarning qoni oqar tomirida,
Boburiylar, Temuriylar zuryodlari.
Baland-baland cho'qqilarni ko'zlar bugun,
Alpomishning, Barchinoyning avlodlari.

Farzandlarin yuragida Vatan ishq,
Ko'z quvnatar naqshlarin jilolari.
Har sohada nomi hali dunyolarga -
Doston bo'lar O'zbekiston bolalari.

Ko'ksi qalqon, Vataniga posbon bo'lib,
Sergak turar O'zbekiston bolalari.
Ahillikda, inoqlikda bir jon bo'lib,
Bo'ston qurar O'zbekiston bolalari.

Matluba MIRZAYEVA,
O'zbekiston Davlat jahon tillari universiteti
qoshidagi 2-akademik litseyning 2-bosqich
talabasi

EY, VATAN!

Ey Vatan, gullar ochilgan bog'laringdan o'rgilay,
Ohular maskan tutibdi, tog'laringdan o'rgilay.

Erku Istiqlolga yetdik, ozod el farzandimiz,
Bu muborak kunga yetgan chog'laringdan o'rgilay.

Har guzar obod, bu har go'shada qaynar hayot,
Ko'rki bog'lardek so'lim, qishloqlaringdan o'rgilay.

Har o'g'il-qiz shuhrating shon-u sharafga burkadi,
Olam uzra hilpirar, bayroqlaringdan o'rgilay!

Sir, Amu to'lqinlanib oqgay, Zarafshon zar sochib,
Kemalar langar solar, qirg'oqlaringdan o'rgilay.

Sen jahon peshtoqida sobitsan-u mardonavor,
Ko'kni o'pgan har bino, peshtoqlaringdan o'rgilay!

Jon fido aylay senga, ey ona yurt, qadring baland,
Sen uchun zirh ko'ksi qalqon, tog'laringdan o'rgilay.

Dilrabo NORQULOVA,
TTYESI qoshidagi akademik litsey o'quvchisi

KELAJAK NIHOLLARI

Erkdan kulib kamolimiz,
Nurafshondir iqbolimiz,
Go'zallashar jamolimiz,
Biz kelajak niholimiz!

Istiqloldan yorug' yuzim,
Ta'riflashga yetmas so'zim,
Oqlagaymiz non-u tuzim,
Biz kelajak niholimiz!

O'zbekdirmiz qallda g'urur,
Odimlaymiz o'ktam, mag'rur,
Bu damlarga berar surur,
Biz kelajak niholimiz!

Zebo TO'XTAYEVA,
Navoiy viloyati, Xatirchi tumanidagi
24-umumta'lim maktabi o'quvchisi

ERTAKNING O'ZGINASI

Bolalar-e, bolalar, eshitmadim demanglar, biz istiqomat qilayotgan poytaxtimizning so'lim Olmazor tumanidagi Beruniy mahallasida «Bolajon» nomli maydoncha barpo etildi. Turli arg'imchoqlar, dam olish o'rindiqlari o'rnatilgan, jonivorlarning haykalchalari bilan bezatilgan maydonchada bo'sh vaqtimiz maroqli o'tyapti. U yerda kattagina suzish havzasi ham borligini aytmaysizmi?!

Bu ertaknamo maydonchani yurtimiz Mustaqilligining 20 yilligi bayramida bizga sovg'a qilgan amakijonlarimizga ka-t-ta-kon RAHMAT, deymiz.

Beruniy mahallasi bolajonlari nomidan Aziza AKBAR qizi. Suratlar muallifniki



Xushxabar

BEKTEMIRDA SHUNAQA GAPLAR



Bolajonlar orasida bayramlarni yaxshi ko'rmaydiganlari topilmasa kerak. Ayniqsa, bayramlar munosabati bilan yaqinlaridan sovg'alar olish naqadar zavqli!

Mustaqilligimizning 20 yillik tantanalari arafasida poytaxtimizning kenja tumani bo'lmish Bektemirda istiqomat qiluvchi bolajonlar ham barcha tengdoshlari kabi ajoyib sovg'aga ega bo'lishdi.

O'zbekiston Matbuot va axborot agentligi tumanda obodonlashtirish va ko'kalamzorlashtirish ishlariga yaqindan yordam berish maqsadida hamkorlik qilib kelmoqda. Agentlik tomonidan tayinlangan mutasaddilar tumanning barcha mahallalarida bo'lib, amalga oshirilgan ishlar, bartaraf etilishi lozim bo'lgan kamchiliklar yuzasidan kerakli tavsiyalar berib turdilar.

O'zaro hamkorlik doirasida agentlik tomonidan tumanning oltita mahallasida «Bolalar maydonchasi»ni barpo etish haqidagi qarori tumanning katta-yu kichigini birday quvontirdi. Mustaqillik bayrami arafasida Majnunol, Olim Ashirov, Bektemir, Bunyodkor va Husayn Boyqaro mahallalarida «Bolalar maydonchasi» qurilib, quvnoq bolajonlar ixtiyoriga topshirildi.

Bektemirda shunaqa gaplar! Maqtansa arzigulik yangilik, shunday emasmi?

Farhod FOZILOV,
Yusuf OG'A

Bog'cha! Bu maskanda jajji bolajonlar maktabgacha ta'lim oladilar. Ularning o'qishga, son-sanoqni o'rganishga, muloqot qilishga qiziqishlari ham aynan shu dargohdan boshlanadi. Uning mehridaryo xodimlari esa bolajonlar uchun ikkinchi onasi kabi.



CHAMANDAGI GULLARMIZ

«Chamandagi gullarmiz» nomli 277-maktabgacha tarbiya muassasi Olmazor tumanining eng so'lim go'shasida joylashgan. Saida Adilova mudirlik qilayotgan bog'chada 120 nafar kichkintoy kamol topyapti. Shinam yotoqxonalar, o'yin zallari, maydonchalari ular ixtiyorida. Oshpaz opalari ularga mazali, to'yimli ovqatlar pishirib berishadi. Mo'jzagina hayvonot bog'i bolajonlarning eng sevimli joyi hisoblanadi. Mevali va manzarali daraxtlar ekilgan bog'cha bog'ida pishib yetilgan mevalardan tayyorlangan sharbaitlar bolajonlarga juda yoqdi.

Bog'chada mahalla va maktab hamkorligida turli tadbirlar o'tkaziladi, bayram va tantanalarni uyushtiriladi. Har bir guruhda tabiat burchaklari mavjud bo'lib, ular bolajonlarning ona tabiatga yanada mehrlil, e'tiborli bo'lib ulg'ayishlariga xizmat qilmoqda. Kichik kutubxonaga ham doimo bolajonlar bilan gavjum. Bog'cha kutubxonasi-ya, deysizmi? Ajablanmang, tayyorlov guruhi tarbiyalanuvchilari allaqachon o'qishni o'rganib olishgan.

Bu bog'cha tarbiyalanuvchilarining ota-onalari farzandlari uchun yaratilayotgan shart-sharoitlardan mamnun bo'lsalar, kichkintoylar, chaman-dagi gullarmiz, deya qo'shiq kuylab yurishadi.

Robiya HAYITOVA,
politexnika kasb-hunar
kolleji talabasi



XOTIRAMDA GULLAGAN YOSHLIK



Opa, negadir bolalikning sirli olami-yu, uning beg'ubor quchog'iga qaytgim kelayapti...

Eski sandal atrofida junjikib, sizning ko'zlaringizga unsiz mo'ltirab kitob eshitganlarimni sog'inaman. Zulhayot opa, ismingizda hayot nomi borligi uchunmi, juda ta'sirchan edingiz.

Hisobsiz kitoblarni zavqini mening qalbimga jo aylagansiz. Garchi o'shanda hali maktabga bormagan yosh bolakay bo'lsam-da, Siz aqlimga sig'dira olmaydigan hikoyalarni menga ro'baro' etgansiz. Yozuvchi Parda Tursunning «O'qituvchi» romanini boshdan oxirigacha ovoz chiqarib o'qiganingiz yodimda. Elmurodning ochlikdan darmoni ketib qolgan onasi-yu, uning bag'ridagi beg'ubor chaqaloqning ahvolini shunchalik ta'sirchan qilib o'qigansizki, garchi bu romanni savodim chiqqach, qayta qo'limga olmagan bo'lsam ham miyamda bir umr muhrlanib qolgan. Romanda ona beso'naqay tut daraxti ostida o'tirib o'g'liga umidvor tikilib deydi:

«O'g'lim, qani hozir shu tut daraxtining mevalari pishgan bo'lsa-yu, sen uning shoxiga chiqib, mevalarini qoqsang, biz singling bilan mazza qilib tut yesak. Shunda o'lim bizdan chekinarmidi?!»

O'shanda onaning achchiq qismatiga achinib yig'laganmiz... Nega kitoblarni o'qigan sari odam yangicha dunyo kashf etaveradi? Abdulla Qodiriyning «O'tkan kunlar» romanidagi Kumushning muhabbati mening qalbimda sevgi tuyg'usini uyg'otgani sir emas. Uning pokiza muhabbati meni o'ziga rom qilgan. Kumushni Otabekdan rashk qilib, men Otabekman, deya otamning «Bayon» laqabli otini minib bepoyon dalalar sari otlanganimda, mening ham vujudimda Otabekning qoni yugurgan bo'lsa, ajabmas...

Oppoq paxtazorda egatlar oralab paxta terishning zavqi bo'lakcha bo'lardi. Baxshi

kampir bizning chaqqonligimizga ishora qilib, «Detilarim», der edi. U bizni paxta terish mashinasiga qiyoslab shunday erkatardi. Chindan ham biz mehnatkash bolalar bo'lib ulg'aydik. Siz o'qigan kitoblarning qahramonlariga aylanishni orzu qilardim. Agar otam o'qishingizga qarshilik qilmaganlarida, Siz eng nufuzli oliygohlardan birining talabasi degan maqomga ega bo'lardingiz. Nachora, taqdir yo'llaringizni dalalar bilan bog'lab qo'ydi. Mashaqqatli mehnatingiz evaziga hayotning katta mukofotlarini olishga erishdingiz. Kitoblarni jon-u dilidan ortiqroq ko'radigan Cho'ponqul tog'am ham sizdan kitob so'rab kelardi. Tog'amning bebaho darsxonasida ulg'aydim, u kishining hikmatli so'zlarini goho kitoblardan ham qidirib topolmayman.

Bugun men kitob o'qibgina qolmay, kitoblarni yozishga kirishdim. Afsuski, tog'am mening yozgan kitoblarimni ko'rolmay ketdi... Bolalikda his qilganlarimni oqqa ko'chirayman. Bu yo'lda sizning ilk ustozlik qilganingizni unutmayman. Qaniydi, bahorlar olib ketgan yillarimni qaytarib bersa-yu, yana bolalikka qaytsam. Sizning yoningizda o'tirib, rohat qilib kitob eshitsam. Onamning tandirdan uzilgan qaynoq kulchalarini suvga oqizib, izidan quvlasam... Eh, u damlarni qaytarib bo'larmikan?!

O'roqchi oy o'rar umrimni,
Xirmonida yanchib chiqar tun.
Sovuradi shamol jismimni,
Ayting, nima qoldi men uchun?..

AXTAMQULI

USTOZ, KO'RIB BERING!

Farg'ona viloyati, Bag'dod tumanidagi 1-umumta'lim maktabining ona tili va adabiyot fani o'qituvchisi Abdumannon TOSHEMIROV gazetamizning eng faol muxbirlaridan. Dolzarb mavrudagi maqolalari, quvnoq she'r va hikoyalari bilan muntazam qatnashib turadi.

Yaqinda ustozdan yana bir maktub oldik. Unda yozilishicha, Muhayyo ismli shogirdi, ustoz, ko'rib bering, deya ijod namunasini olib kelgan, uning hangomasi ustozning kitoblari orasida qolib ketgan-u, maktab ishlari bilan bo'lib unutilgan ekan.

Oradan yillar o'tib, Muhayyoning hangomasini topib olgan ustoz kechikibroq bo'lsa-da, gazetamizga yuborishga ahd qilibdilar.

Quyida ana shu quvnoq hangomani biroq qisqartirib, e'tiboringizga havola qilamiz.

Zuhra MUHSIMOVA

TAN OLISH MARDNING ISHI

Sinfimizda Iqbol ismli sho'x va hazilkash bir bola bor. U bilan bog'liq juda ko'p quvnoq hangomalarga guvoh bo'lganmiz.

Bir kuni maktabimizga yangi kelgan geografiya o'qituvchimiz:

– Xaritani kim yaxshi biladi? – deb so'rab qoldilar.

– Men, – deb javob berdi Iqbol ustozning savoli tugamay.

– Globusni-chi?..

– Men, – dedi yana Iqbol.

– Sinfda eng a'lochi o'quvchi k... , – ustozning savoli og'zida qoldi.

– Men, – dedi Iqbol qo'lini baland ko'tarib.

Shunda o'qituvchimizning biroz jahli chiqib:

– Kim ahmoq? – deb so'radilar.

– Men... – dedi Iqbol shoshilib va barmog'ini tishlab qoldi.

Sinfda qattiq kulgi ko'tarildi. Iqbol esa bergan



javobidan uyalib, qizarib ketdi. Shundan buyon u o'qituvchimizning savoli tugagandan so'ng javob qaytarishga odatlandi.

Bu voqeani eslab kulishsak: «Ahmoqlikni tan olish hammaning ham qo'lidan kelavermaydi», deb qo'yadi hazil aralash.

Shunday xushchaqchaq, hazilkash sinfdoshim borligidan doim quvonib yuraman.

NOAN'ANAVIY MAJLIS

Xolamning qizi Nargizaning yangi sinf rahbari: «Bu gal majlisimiz noan'anaviy tarzda bo'ladi. Unda ota-onalaringiz bilan birga sizlar ham qatnashasizlar. Ota-onasi kelmagani o'quvchini darsga qo'yamayman», debdi.

Nargiza ikkimiz xolamni majlisga borishga bazo'r ko'ndirdik. Sinf rahbari o'quvchilarni alohida, ota-onalarni alohida xonalarga taklif etibdi. Ota-onalarga o'nta savoldan iborat «Siz farzandingizni bilasizmi?» nomli anketa tarqatilibdi. Xuddi shu savollar o'quvchilarga ham berilibdi. Anketada o'quvchining tug'ilgan kunidan tortib, nimalarga qiziqishi, qaysi fanni, ustozni, adibni, xonandani, rangni, taomni, musiqani, o'yinni yoqtirishigacha so'ralgan ekan.



Keyin ustoz ota-onalar bilan bolalarning javoblarini solishtirib chiqibdi.

Xolam va yana bir necha ota-onalarning javoblari bolalari javobiga to'g'ri kelmabdi. Ko'pchilikning oldida farzandini yaxshi bilmaydigan ota-ona sifatida uyalib qolishibdi. Xolam majlisdan xafa bo'lib qaytdilar:

– Endi bu maktabda o'qimaysan! O'qituvching juda shartaki ekan. Yuzingda ko'zing bormi demay, o'zidan katta odamlarni sharmanda qildi. Shunaqa savollari bor ekan, nega oldinroq ogohlantirib qo'yaydi? – dedilar jahllari chiqib.

Biz ularga nima deyishni bilmay qoldik...

Mohlaroy IZZATILLA qizi,
Toshkentdagi 59-maktab o'quvchisi

Darhaqiqat shunday! Liboslarni oson bichish uslubini yaratib, mualliflik huquqini qo'lg'a kiritgan Mashhura opa madaniyat uyida qizlarga saboq bera boshlaganida, bor-yo'g'i 17 yoshda edi.

Mazkur yilimizning yurtimizda «Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik yili» deya e'lon qilinishini barcha tadbirkorlar qatori Mashhura opa ham quvonch bilan qarshi oldilar. Chunki imkoniyatlar eshigi yanada kengroq ochildi.

«Mashhura» o'quv markazi! Bugungi kunda ushbu nom ko'pchilikka tanish.

Respublikamizning olis-olis tuman va qishloqlarida ham bu markazni yaxshi bilishadi. Uning rahbari Mashhura opa Yusupova haqida gap ketganda: «Yurtimizda tadbirkorlik harakatining tamal toshini qo'rganlardan», deya ta'rif berishadi.

ISMI JISMIGA MONAND

Eng ulug' va eng aziz bayramimiz arafasida opa bilan hamsuhbat bo'lib, bolalik xotiralari oshno tutindik, ushalgan, ushalmagan orzulari haqida so'radik:

– Bolaligimni yaxshi xotirlayman: o'ta vazmin qiz bo'lganman. Tengdoshlarim orasida o'zimni kattalardek tutishga intildim, ularning o'y-fikrlari, qiziqishlari, mashg'ulotlari men uchun juda zerikarli tuyulardi, dunyoqarashlarimiz umuman boshqacha edi. Dugonalarim ko'p bo'lmaganining boisi ham shundadir balki...

7-sinf gacha Shayxontohur tumanidagi 169-maktabda tahsil olganman. 10-sinfni esa Uchtepa tumanidagi 106-maktabda tamomladim. Yaxshi o'qishim, jamoat ishlaridagi faolligim uchun suratim «Hurmat taxtasi»dan tushmasdi. Eng oliy maqsadim esa suratimni «A'lochilar doskasi»da ko'rish edi...

Insonning yoshi ulg'aygani sari bolalik xotiralari bot-bot yodiga tushaverarkan. Dastlab farzandlari, keyinchalik nabiralari siymosida bolaligini ko'radi inson. O'sha betakror damlarimni xotirlab, har

narsaning o'z vaqtida bo'lgani yaxshi, bolalik gashtini bolalikda surish kerak ekan, deya o'ylab qolaman ba'zida. Yana bir tomondan, hozirda erishayotgan natijalarimga balki o'sha paytdagi holatim zamin bo'lgandir, degan fikrga ham boraman.

Ushalgan, ushalmagan orzularga kelsak, kichikligimdan birinchi ustozim Aziza opaga havas qilib, o'qituvchi bo'laman, deb yurardim. Bu orzuim ushalmadi deyolmayman. Garchi o'qituvchi bo'lolmasam-da, minglab qizlarga ustozlik qilyapman. Iqtidorli, intiluvchan shogirdlarimiz respublikamizning barcha viloyatlarida markazimiz filiallarini ochib, bu yerda o'rganganlarini dugonalariga, opa-singillariga ham o'rgatishyapti...

Darhaqiqat, bugungi kunda «Mashhura» o'quv markazi qoshida yigirmadan ortiq yo'nalishlar bo'yicha bo'limlar ish olib boryapti. Ularda ko'plab ayollar va qizlar kasb-hunar sirlarini egallab, mahoratlarini oshirib boryaptilar.



Ismi jismiga monand Mashhura opani uzoq yillar mobaynida qilgan mehnatlari, ibratli ishlari, ezgu amallari xalqimiz orasida mashhur qildi, elimizning ardoqli qiziga aylantirdi. Yurtimiz ravnaqiga munosib hissa qo'shib, tadbirkorlikka havasmand minglab qizlarimizga ibrat bo'layotgan shunday insonlar bor ekan, ertangi kunimiz yanada porloq bo'lishiga aminmiz.

Feruza JALILOVA

Yangi o'quv yilining ilk haftasidanoq tahririyatimizga kelayotgan maktublar soni sezilarli darajada ortdi. Qo'shaloq bayramlar shukuhil sezilib turgan maktublarda o'quvchilarimiz yurtimiz to'yini qanday tantana qilganliklari, Mustaqillik darslari haqida to'liqlanib yozishyapti.

Ularni ko'zdan kechirar ekanmiz, «Kim ko'p kitob o'qiydi?» tanloviga ham talaygina maktublar kelganiga guvoh bo'lamiz.

Buxoro viloyati, G'ijduvon tumanidagi 63-ixtisoslashtirilgan maktab-internat direktori Gadoymurud Kattayevdan kelgan maktubda maktabning 8-«A» sinf o'quvchisi Dilnoza Norovanning eng a'lochi, namunali o'quvchilardan ekanligi, maktabda o'tadigan tadbirlarda faol qatnashishi, adabiyot, matematika, fransuz tillarini ishtiyoq bilan o'rganayotgani haqida yozilgan. Uning sinf rahbari Farruh Shamsiyev



esa Dilnozaning ta'til davomida o'qigan kitoblari soni 163 taga yetganini mamnuniyat bilan ma'lum qilgan.

– «Tong yulduzi» bolalar nashrlari orasidagi eng – deb yozadi

sevimli gazetam, maktabning adabiyot fani o'qituvchisi, xalq ta'limi a'lochisi Tursunoy Sadriyeva. – Yoshim 61 da, pedagogik faoliyatimga 41 yil to'ldi. Nafaqada bo'lishimga qaramay, sevimli kasbimni hamon tark etganim yo'q. Har dushanba o'quvchilarim yo'limga peshvoz chiqib, ustoz, «Tong yulduzi» kelibdi, deya qarshi

olishadi. Uni birgalikda o'qiyamiz, tanlovlarida qatnashamiz.

O'tgan yili e'lon qilingan kitobxonlar tanlovida o'quvchimiz Shalola Jumayeva g'oliblikni qo'lg'a kiritgan edi. Unga havas qilib, kitobga mehr qo'ygan o'quvchilarimiz soni yanada ortdi.

Har yili o'quv yilining boshida va oxirida kitobxonlar tanlovini o'tkazaman. O'quv yili yakunidagi tanlov natijalariga ko'ra, Dilnoza Norova g'olib deb topildi. Bu kitobxon qizimizni «Tong yulduzi» gazetasida e'lon qilingan «Kim ko'p kitob o'qiydi?» tanlovida ishtirok etishga munosib deb bilaman...

Darvoqe, Dilnozani muxlislarimiz ham gazetasida e'lon qilingan «Bahor», «Shalola g'olib bo'ldi», «Bir olam omad» kabi she'r va hikoyalari orqali yaxshi tanishadi. Unga aqlli, zukko, hozirjavob qiz, deya ta'rif berishsa, barchasi kitob tufayli, deb qo'yadi kamtarlik bilan.

Bu kitobxon qizimizga omad tilagan holda, yana bir bor eslatib o'tamiz: «KIM KO'P KITOB O'QIYDI?» tanlovi 1-Oktabr – O'qituvchilar va murabbiylar kunida yakunlanadi.

O'z muxbirimiz

KIM KO'P KITOB O'QIYDI?



Bolajonlar, hech suyunchi olganmisiz?! Agar olmagan bo'lsangiz, ko'p narsadan bebahra yurgan ekanman, deyavering. Axir bu dono xalqimizning eng qadim udumlaridan biri-ku!



Ustozni qutlash naqadar zavqli!

Tasavvur qiling: yon qo'shnigizning o'g'li harbiy xizmatdan qaytayotganini birinchi bo'lib siz ko'rib qoldingiz. Yururib uylariga kirib, bu xushxabarni ota-onasiga aytdingiz. Bu xabardan xonadon ahlining quvonchi ichiga sig'may,

SUYUNCHI!

qo'yingizni shirinliklarga to'ldirib yuboradi. Yoki akangiz, opangiz oliy o'quv yurtiga o'qishga kirdi. Bu xabarni ham qarindosh-urug'larga yetkazib suyunchilang. Xullas, nimaki yaxshi xabar bo'lsa, suyunchisi naqd!

Endi esa o'zim kitoblarda o'qiganim, keksa kishilardan eshitganim bir odam haqida sizlarga gapirib bergim keldi:

...Ikkinchi jahon urushi yillarida chekka qishloqlardan birida oq-sariqdan kelgan, ukasingillariga meh-

ribon bir bolakay yashagan ekan. 11-12 yoshlar atrofidagi bu bola ota-onasiga yordam berish uchun dalaga chiqib, kattalar bilan barobar mehnat qilibdi. Kechalari uxlamay g'o'zaga suv tarabdi. 70 kiloli qopdagi bug'doyni eshagiga ortib,

tengdoshlari bilan shahardagi omborga tashibdi. Yer chopishda unga teng keladigani yo'q ekan. Bolajon o'qishni yaxshi ko'rgan boisi, shahardan, albatta, yaxshi kitob va yangi gazetalar olib qaytardi. Yaxshi xabarlarini o'qib berib, qishloqdoshlarini mamnun etardi.

Urush tufayli maktabdan uch yil qolib ketib, urushdan so'ng o'zidan kichiklar bilan birga maktabni bitirdi. SAGU (hozirgi O'zbekiston Milliy universiteti)da ham o'zidan kichiklar bilan o'qidi.

Talabalik chog'larida hikoyalar, tarjimalar mashq qilib, ko'pchilikning e'tiboriga tushdi. Keyinchalik Oybek, Mirtemir, Abdulla Qahhor, G'afur G'ulom kabi taniqli yozuvchi-

lar nazariga tushib, ularning suyuqli inisiga aylandi. Ustozlariga ergashib, barakali ijod qildi. Birin-ketin «Irmoq», «Robinzonlar», «Oqim», «Qor xat», «Qush qanoti bilan» kabi bolalarbop kitoblari va qozoq adabiyotidan tarjimalari chop etildi.

Zukko o'quvchilarimiz kim haqida gapirayotganimizni allaqachon bilib olgan bo'lsalar kerak?!

Ha, do'stlariga, shogirdlariga doimo yaxshi «xabarlar»ni sog'inib yuradigan bu kishi bolalarning sevimli yozuvchisi Nosir Fozilov bo'ladi.

Ey, u kishi mening ham sevimli yozuvchim bo'ladi, deysizmi? Unda yangilikdan ham xabaringiz bo'lsa kerak: ardoqli adibimiz Nosir Fozilov o'zbek adabiyoti rivojiga munosib hissa qo'shgan uchun yurtimiz Mustaqilligining 20 yilligi munosabati bilan O'zbekiston Respublikasi Davlat mukofotiga sazovor bo'ldi.

Suyunchi sizdan! Taniqli yozuvchimiz kabi tirishqoq va mehnatkash, ilm yo'lida tolmay mehnat qiladigan inson bo'lib kamol topsangiz, biz uchun eng katta suyunchi shu bo'ladi.

Yusuf ABDULLAYEV.
Surat muallifi: O.ORIPOV

MENING KICHKINA SOVG'AM

Hilola Bozorboyeva maktabda a'lo baholarga o'qib, fan olimpiadalari g'olibi bo'lgan. Hozirda Xotin-qizlar kollejining huquqshunoslik bo'limida tahsil olmoqda.



Hilola yurtimiz Mustaqilligining 20 yilligiga atab ajoyib sovg'a tayyorlabdi. Keling, bu haqda uning o'zidan eshitaylik:

– Oilamiz a'zolaridan biror kishining tug'ilgan kuni bo'lsa, oldindan tayyorgarlik ko'rib, sovg'a tayyorlayman. Bu sovg'a qimmatbaho bo'lmasa ham, mehr bilan tayyorlaganim boisi barchaga manzur bo'ladi. Yana milliy kuylarimizdan ijro etib, raqsqa tushib beraman.

Vatanimiz to'yiga atalgan kichkinagina sovg'amni «Turkiston» san'at saroyida bayramga atab o'tkazilgan tadbirga tayyorlab bordim.

– O'ylashimizcha, sovg'angiz chiroyli raqs ijrosi bo'lsa kerak, shundaymi?

– Yo'q, bu safar boshqacharoq bo'ldi. Kursdoshlarim bilan birgalikda milliy urf-odatlarimizdan biri bo'lmish «Kelin salom» sahna ko'rinishini tayyorlab taqdim etdik va 2-sentabrda kollejimizda «Sog'lom avlod – mustaqillik iftixori» shiori ostida o'tkazilgan tadbirida ham boshlovchi bo'ldim. Tadbirida diyorumizning kundan-kunga gullab-yashnayotganini, biz yoshlar uchun yaratilayotgan shart-sharoitlarni, yurtimizdagi ulkan o'zgarishlarni tarannum etdik. So'zim so'ngida, yoshingga yosh qo'shilsin, mustaqil diyorum, deb qolaman.

– Rahmat, Hilola! Yurtimizda sizdek vatanparvar o'g'il-qizlar kamol topayotgan ekan, O'zbekistonimizning kelajagi buyuk bo'lishiga ishonchimiz komil.

Suhbatdosh: Gulyuz BAHODIR qizi

Odobli, aqlli bolani hamma yaxshi ko'rishi rost. Odobsiz bolani esa o'qituvchi o'z mehri, shirin so'zi bilan yaxshilar qatoriga qo'shishi ham rost. Yaxshi o'qituvchi o'quvchisining qo'lidan ushlab, past-balandliklardan olib o'tadi, chunki uning mehri quyoshdek hammaga barobar.

Bugun poytaxtimizning Uchtepa tumanidagi 197-maktabda o'zgacha tantana. Boisi, ustoz-u shogirdlarga birdek yoqqan kimyo fani o'qituvchisi Dilorom Otamuhamedova O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligining «Xalq ta'limi a'lochisi» ko'krak nishoni bilan taqdirlandi.

Mazkur bilim dargohining sobiq o'quvchisi Dilorom opa maktabni a'lo baholar bilan yakunladi. Bir necha bor respublika fan olimpiadalarida muvaffaqiyatli ishtirok etib, ustozlari ishonchini oqladi. Yillar o'tib, opamiz o'zlari ta'lim-tarbiya olgan maktabga qaytdilar. Bugungi kunda o'ttiz yillik ish tajribasiga ega bo'lgan ustoz maktabning eng tajribali va bilimdon o'qituvchisi degan nomga musharraf bo'ldi. Ko'plab shogirdlar tayyorlab, bugungi kunda ular el xizmatida halol mehnat qilmoqdalar.



NISHONINGIZ MUBORAK, USTOZ!



Tinib-tinchimas Dilorom opa maktabdagi yosh ustozlarning ham murabbiyi.

Men opaning shogirdi sifatida shuni yaxshi bilamanki, ustozimiz bilan barcha mavzuda bemalol suhbatlashish mumkin. Chunki ular o'z kasbining ustasi, mehribon ustoz, turli fe'l-atvorli o'quvchining ko'ngliga yo'l topa oladigan ajoyib inson.


Kimyodek qiziqarli, shu bilan birga, juda murakkab fanga qiziqishimda Dilorom opaning hissasi katta, desam aslo mubolag'a bo'lmaydi. Ularga havas qilib men ham kimyo sohasini tanladim va bugungi kunda Toshkent kimyo-texnologiya instituti talabasi bo'ldim. Opamizning saboqlari hayot yo'llarimni yorituvchi mangu mash'ala bo'lib qolishi shubhasiz.

Oliy toifali o'qituvchi, «Xalq ta'limi a'lochisi» Dilorom Otamuhamedovaga, yangi o'quv yilingiz va ko'krak nishoningiz muborak, deymen. O'quvchilarga bilim berishdek mashaqqatli va o'ta mas'uliyatli ishingizda Sizga kuch-quvvat va salomatlik tilayman.

Alisher ABDULLAJONOV.
Suratlar muallifi: F.SHYOYODGOROV

DUNYONI HAYRATDA QOLDIRGAN QIZ

Z. MUHSIMOVA olgan surat



Aziz bolajonlar! Yodingizda bo'lsa, gazetamizning avvalgi sonlaridan birida tengdoshingiz Oqila MIRXO'JAYEVAning Italiyaning San-Bartomoleo al Mare shahrida bo'lib o'tgan «Giovanissimi Talenti» 26-Xalqaro yosh musiqachilar tanloving pianino cholg'usi bo'yicha Gran Pri sohibasi bo'lgani haqida xabar berib, u bilan suhbat qurishni rejalashtirgandik. Va'da qilganimizdek, Oqila siz bilan Italiyaga qilgan safari taassurotlarini o'rtoqlashadi.

– Opam Fazilat Mirxo'jayeva ham Glier nomidagi musiqa maktabining xor dirijorligi yo'nalishida tahsil oladilar. Opamning o'z ustida tinimsiz ishlashi, izlanishlariga havas qilib, men ham shu maktabning fortepyano sinfida o'qishga jazm qildim.

– Fortepyano murakkab cholg'u asbobi hisoblanadi. O'rganishingiz qiyin bo'lmadimi?

– Avvaliga biroz qiynaldim, ammo ustozim Guljahon opa Hasanova ortga chekinmaslikni, sabrli bo'lishni o'rgatdilar.

– Bunday nufuzli tanlovda ilk bor qatnashishingizmi?

– Yo'q, 2010-yilda Gretsiya shahrining Santorina orolida bo'lib o'tgan yosh musiqachilar tanlovida ham qatnashib, faxrli 2-o'rinni egalladim va O'zbekiston Madaniyat va sport ishlari vazirligi tomonidan «Tasanno» sertifikatini bilan taqdirladim.

– Italiya safaridan olgan taassurotlaringiz qanday?

– Bizni juda yaxshi kutib olishdi. Tanlov ishtirokchilari uchun barcha sharoitlar yaratilgan ekan. Milliy liboslarimizni ushlab ko'rib, uning rang-barangligiga, nafisligiga qoyil qolishdi. Italyanlar yurtimiz haqida ko'pgina ma'lumotga ega ekanlar. Biz tarixiy shaharlarimiz, qadimiy obidalarimiz fotosuratlarini ularga sovg'a qilganimizda, bizdan behad mamnun bo'lishdi.

– Qaysi bastakorlarning kuylarini sevib chalasiz?

– Men K.Debyusining «Arabeska», Prokofevning «Tarantella», S.Hayitboyevning «Prelyudiya» asarlarini chalishni yoqtiraman.

Niyatim, kelgusida mana shunday tanlovlarda qatnashib, yurtimiz nomini dunyoga tanitayotgan iqtidorli tengdoshlarim safidan o'rin olish.

– Oqila, ezgu niyatlaringsiz ijodat bo'lsin!

Ozoda TURSUNBOYEVA suhbatlashdi

– Oqila, avvalo, erishgan muvaffaqiyatingiz bilan chin dildan qutlaymiz! Shunday nufuzli xalqaro tanlovda qatnashib, Gran Pri sohibasi bo'lish oson kechmagan bo'lsa kerak?

– Albatta. Bu tanlovda dunyoning o'ttizta mamlakatidan o'quvchilarning qatnashishi. Ular orasida tengdoshlarim – skripka cholg'usi bo'yicha Yulduz Mullajonova, violonchel cholg'usi bo'yicha Dilshod Narzullayev ham borligidan faxrlandim. Yurtimizda biz yoshlarga ko'rsatilayotgan e'tibordan g'ururlanib ketdim.

– Oqila, musiqa olamiga kirib kelishingiz haqida gapirib bersangiz...



Bugun O'zbekistonni tanib bo'lmaydi. Yurtimizda yuz berayotgan jadal rivojlanish va o'zgarishlarni ko'rib, har bir vatandoshimizning qalbida faxr va iftixor tuyg'usi jo'sh uradi. Shu o'rinda chamanga aylanayotgan ajib o'lkam uchun men nima qildim, degan o'rinli savol tug'iladi.

Qalbida farahbaxsh hislar bilan yonib yashash har kimning ham qo'lidan kelavermaydi. Hukumatimiz tomonidan biz uchun yaratilayotgan sharoitlarga javoban a'lo baholarga o'qishimiz, chin ma'noda, Vatanning faxriga aylanishga intilishimiz lozim. Bu, albatta, ezgu orzu! Hali oldinda bizni ko'plab ma'rifat dovonlari kutadi. Keling, hozircha eng osonidan boshlaylik: Vatanni sevishimizni go'zal xulqimiz va a'lo baholarimiz bilan isbotlaylik. Biz tarixiy davrlarda yashayotgan ekanmiz, yurtimiz ravnaqiga hissa qo'shadigan amallarga qo'l uraylik. Yaxshilardan ibrat olib, ibratli bo'laylik. Ezgulik yo'lidagi ilk qadamingiz muborak!

Mavluda RAHIMOVA,
Toshkent moliya va iqtisodiyot
kollejining ona tili va adabiyot fani o'qituvchisi

BILIMDONLAR BELLASHUVI

Surxondaryo viloyatining Jarqo'rg'on tumanidagi 2-umumta'lim maktabi direktori SH.Jovliyev ta'lim maskanida o'quvchilarning puxta bilim olishlari uchun o'qituvchilarning o'z ustida ishlashlarini muntazam ravishda nazorat qilib boradi. O'quvchilarning darslardan bo'sh vaqtlarida turli mavzuda tarbiyaviy soatlar o'tkazib turiladi. O'tgan o'quv yilida o'tkazilgan tadbirlardan birining taassurotlarini bolajonlar hali ham so'zlab yurishibdi. 4-«A» hamda 4-«D» sinf o'quvchilari orasida bo'lib o'tgan tadbir «O'zbek bolalar shoir va yozuvchilari ijodini kim ko'p biladi?» deb nomlandi. Bellashuv ishtirokchilari bolalar yozuvchi va shoirlarining hayoti va ijodi haqida so'zlab berishdi, asarlari asosida sahna ko'rinishlari namoyish etildi. Bellashuv juda qiziqarli o'tdi. Ayniqsa, Xudoyberdi To'xtaboyevning «Sariq devni minib» asaridagi Hoshimjon obrazini talqin qilgan 4-«D» sinf o'quvchisi Elbek To'xtayevning ijrosi yig'ilganlarda katta taassurot qoldirdi. Quddus Muhammadiyning «Urishqoq chivin va shamol polvon» haqidagi ertagiga ishlangan sahna ko'rinishi ota-onalarni va ustozlarni

xursand etdi. Tadbirda faol qatnashgan o'quvchilar maktab direktorining «Maqtoq yorlig'i» bilan taqdirlandilar.

Yangi o'quv yilida ham ana shunday ibratli tadbirlar o'tkazishni rejalashtiryapimiz.

Xosiyat QOBULOVA,
boshlang'ich sinf
o'qituvchisi



Suratlarda: Tadbirdan lavhalar

SHAXMATNI O'RGANAMIZ

Bolajonlar! Har birimizning fayzli, obod, ko'rkam va shinam xonadonlarimiz bor. U yerda bizning eng baxtli, shirin onlarimiz o'tadi, to'g'rimi? Surxondaryo viloyati, Denov shahridagi Ravshan aka Jo'rayevning mo'jazzina xonadonida opa-singil Ra'no va Gulchehralar baxtiyor bolalik gashtini surishyapti. Ayni damda ispancha va siseloncha usulda dona surishning hadisini olayotgan bo'lajak shaxmatchi qizaloqlar dunyoda shaxmatning yuzdan ortiq turi mavjudligini yaxshi bilishadi. Axir bu xonadonda shaxmat saboqlari o'tiladi-da.

Ishonmaysizmi, unda bizga ergashing. Biz birgalikda uyiga tashrif buyuramiz. Hamda xonadonda o'tadigan shaxmat darsiga ham guvoh bo'lamiz. To'rt farzandini shaxmat mashg'ulotiga jalb qilgan Ravshan aka nima uchun bolalariga murabbiy bo'lishga ahd qildi?

– O'zim tadbirkorlik bilan shug'ullanaman. Bolaligidan yaxshi sportchi bo'lishni orzu qilardim. Poytaxtda bo'lib o'tadigan bolalar musobaqalariga qatnashsam, deya shirin orzularga berilardim...

Hozir qizlarim Robiya, Ra'no, Gulchehra hamda besh yoshli o'g'linga bir necha yildirki, shaxmat darslaridan saboq berib kelyapman. Tuman,

– Dadam hammamizni shaxmatga qiziqtirib qo'yganlar. Uyimizda shaxmat xonamiz bor. Har kungi dars soatlarimiz belgilangan. Yumushlarni o'z vaqtida bajarib, saboqlarga kirishamiz. Yaqinda poytaxtning shaxmat federatsiyasi binosida

Istiqlolimizning 20 yilligiga bag'ishlangan shaxmat musobaqasi bo'lib o'tdi. Unda yurtimizning 5 yoshdan 14 yoshgacha




bo'lgan yuzdan ortiq bolalari ishtirok etdilar. To'qqiz kun davom etgan musobaqalarda tengdoshlarimiz, o'zimiz tengi chempionlar bilan dona surishdik. Lekin chempion bo'lolmadik, tajribamiz yetmadi. Nasib qilsa, dadamning mehnatlarini bir kun ro'yogga chiqaramiz va albatta, chempion bo'lamiz!

TAHRIRIYATDAN:

Bugungi kunda dadasi yordamida poytaxt musobaqalariga qatnashayotgan, shaxmatga oid kerakli adabiyotlar bilan tanishayotgan denovlik iqtidorli bu ikki qizaloqqa yurtimizda bolalar sporti tizimi yaratilganligini eslatib o'tamiz. Ular tajribali murabbiylar sabog'idan ham bahramand bo'lsalar, maqsadga muvofiq bo'lardi.

Aziz bolajonlar! Gazetamiz sahifalarida yangi o'quv yili boshlanishi munosabati bilan «Shaxmatni o'rganyapman» nomli yangi rukn tashkil eidik. Yon-atrofingizdagi sport to'garaklari, o'quv dargohingizdagi murabbiylar faoliyatini, joylardagi Ravshan aka kabi sportga mehri baland insonlarni ham bizga ko'proq tanishtiring. Xatlaringizni kutamiz. Chunki biz siz bilan DO'STMIZ! Gazeta sahifalarida uchrashguncha!

Ma'mura YIGITALI qizi



RAPQONLIK CHEMPION

Bahrom Fozilov boks bo'yicha Farg'ona viloyati terma jamoasi a'zosi sanaladi. Istiqlolimizning 20 yilligi bayrami kunlarida chempion akangizga omad kulib boqdi. U Olmaliq shahrida bo'lib o'tgan mamlakat chempionatida ishtirok etib, O'zbekiston chempioni degan nomga sazovor bo'ldi. Finalgacha 5 nafar raqibining barchasini ochkolar bo'yicha yengib, 4 nafari ustidan muddatidan avval g'alaba qozonib, O'zbekiston chempioni degan faxrli nomga erishdi.

SHOHSUPANING POG'ONASI BAND

Oltiariq tumani Farg'ona viloyatining eng so'lim, xushmanzara go'shalaridan biri. Tumandagi bolalar va o'smirlar sport maktabida tarbiya olayotgan sportchi bolalar chempion bo'lib uning dovrug'ini yanada ko'tarmoqdalar.

– Maktabimiz sportchilari viloyat, respublika va xalqaro musobaqalarda muvaffaqiyatli ishtirok etishmoqda, – deydi BO'SM direktori Ibrohim aka Uzoqov. – Yutuqlarga erishish uchun tinimsiz mashq qilib, mahoratga ega bo'ldik. Andijon shahrida o'tkazilgan kurash bayramida o'quvchimiz Behzod Hasanov o'z vazn toifasida tengsiz deb topildi. Yana bir vakilimiz Muhammadjon To'xtasinov esa ikkinchi o'rinni qo'lga kiritdi. Husniddin Boltaboyev shu sport turidan «Umid nihollari» musobaqasining respublika bosqichida qatnashib, faxrli ikkinchi o'rinni band etgan. Karate sport turi bo'yicha Dostonbek Otabolayev va Iqbol Uzoqovning yutuqlaridan quvonsak yarashadi. Ular Malayziyaning Kuala Lumpur shahrida o'tkazilgan Osiyo chempionatida shohsupaga ko'tarildilar. Ilhom Fozilov va Asliddin G'ulomov sportning erkin kurash turida O'zbekiston terma jamoasi yoshlar tarkibidan joy oldilar. Shuningdek, Sardar Vahobjonov, Quadrat Davronov, Farrux Uzoqov respublika, xalqaro musobaqalar sovrindorlari bo'lishgan. Shu yilning fevral oyida Ozarbayjon Respublikasi poytaxti Boku shahrida kurashchilar bayramidagi xalqaro turnirda Ilhom Fozilov kuchli raqiblar bilan bellashib, mahoratini oshirdi.

Ayni paytda Oltiariq tumani bolalar va o'smirlar sport maktabida 482 nafar o'quvchilarga sportning 11 turidan 19 nafar murabbiylar saboq bermoqdalar. Quvonarlisi, yosh sportchilarning 152 nafarini qizlar tashkil etadi.



Muhammadjon MAHMUDOV,
Marg'ilon shahri

SURXON QASIDASI



O'z erkiga sultonni ko'r, endi kelib Surxonni ko'r!
Or-nomusi osmonni ko'r, endi kelib Surxonni ko'r!

Xo'ja Xizrning yoridir, Termiziyalar diyorida,
Termizdayin bo'stonni ko'r, endi kelib Surxonni ko'r!

Cho'l qo'nida bog'i Eram, ko'kdan yog'ar lutfu karam,
Xayr-u saho, ehsonni ko'r, endi kelib Surxonni ko'r!

Ilk insonning beshiktoshi, Boysuntog'ning Teshiktoshi,
Toshguzar – Qumqo'rg'onni ko'r, endi kelib Surxonni ko'r!

Ko'kka yetib ovozasi, Temur bobo darvozasi,
Temiryo'lda karvonni ko'r, endi kelib Surxonni ko'r!

Tugamagay ertaklari, yerga tegmas kuraklari,
Boysun degan polvonni ko'r, endi kelib Surxonni ko'r!

Alpomishdan qolgan meros, Abdullasi olgan meros,
El alqagan o'g'lonni ko'r, endi kelib Surxonni ko'r!

Aylar hikoyatlar hazor, Sayrobda ming yillik chinor,
Choyxonada yoroni ko'r, endi kelib Surxonni ko'r!

Sherobod – sherlar yurti, Vaxshivori – pirlar yurti,
E'tiqod-u iymonni ko'r, endi kelib Surxonni ko'r!

Anbar anqir anhoridan, ko'z quvnagay Angoridan,
Sho'rchi-yu Jarqo'rg'onni ko'r, endi kelib Surxonni ko'r!

Sharq'un muhabbat bog'idek, Mirzosi Bobotog'idek,
Denovdayin qo'rg'onni ko'r, endi kelib Surxonni ko'r!

Tasvirini topdi Vatan rassomi Ro'zi Choridan,
Moniyqalam insonni ko'r, endi kelib Surxonni ko'r!

Go'yoki millat mirzasi ustoz Shukur Xolmirzasi,
Tillar aro dostonni ko'r, endi kelib Surxonni ko'r!

Orzuyini, umidini, Sirojiddin Sayyidini,
Erkin A'zam, Usmonni ko'r, endi kelib Surxonni ko'r!

To'ng'ich va lekin kenjadedek farzandi Mirzo Kenjabek,
She'r-u g'azal irfonni ko'r, endi kelib Surxonni ko'r!

Baxt topadi inson unda, chunki barcha imkon unda,
Mustaqillik davronni ko'r, endi kelib Surxonni ko'r!

Porloq hayot oshyoniga, yuksalishlar dovoniga,
Qadam qo'ygan Sarbonni ko'r, endi kelib Surxonni ko'r!

Har bir ko'shku koshonasi – obod Vatan durdonasi,
Afsona bog'istonni ko'r, endi kelib Surxonni ko'r!

O'zbekiston dilbandidir, janubdagi farzandidir,
Sadoqatli posbonni ko'r, endi kelib Surxonni ko'r!

Ta'rifiga tillar o'jiz, tavsifida ellat o'jiz,
Ja'far kabi hayronni ko'r, endi kelib Surxonni ko'r!

Ja'far MUHAMMAD,
Toshkent – Sharq'un – Sho'rchi

NABIRAM BARCHINOYGA

Raqsga tushing, qo'shiq ayting, Barchinoy,
Zavq-shavq bilan jo'shib ayting, Barchinoy.
Qor parchasi bo'lib chiqing sahnaga,
Shodliklarni qo'shib ayting, Barchinoy.

Alla aytsa onangiz, siz ham ayting,
Ertak aytsa opangiz, siz ham ayting.
Barcha yumush kattalardan bir meros,
Mushkul emas agar qilsangiz ixlos.

Bolalik – podsholik betakror davr,
Zavq-la yashab kechiring mazmunli umr.
Yurtning kelajagi, ertasi bo'ling,
Mudom boringizga qilaman shukr!

Yaratish, yashnatish – eng ezgu odat,
Ular sizga yo'ldosh bo'lsinlar har dam.
Ajdodlarga munosib bir farzand bo'ling,
Duo olib yuring, aslo bo'lmang kam.

Mirza Anvar KARIMOV



1

Bir zamonlari Xiva tomonlarda
dono bir shoh o'tgan ekan.
Xorazmning gullab-yashnashi,
adolatning barqarorligi ham shohning
odilligi-yu vazirning aql-zakovati,
tadbirkorligi tufayli bo'libdi.

Oллоh nazari tushgan bu yurtida hatto
birorta o'g'ri, birorta gado yo'q ekan.
O'sha odil shoh-u dono vazir saroydagi
eshik og'asidan tortib, to qozi-yu
nozirlarning har bir qadamidan
xabardor bo'lsalar ham el-yurt hol-
ahvolini o'z ko'zlari bilan ko'rishga
odatlangan ekanlar. Ular kechalari
darveshlarning kuloh-u jandalarini
kiyib, yashirincha saroydan tashqariga
chiqishar, mahalla-ko'ylarni kuzatib
yurishar ekan.

2

...Kunlardan bir kun tunda
temirchilar mahallasini aylanib
yurishsa, bir unyning derazasidan
shamning miltirab nur taratib turganini
ko'rib qolishibdi. Yaqinroq borishsa,
ichkaridan kichkina bolg'achaning «tiq-
tiq» urilayotgan tovushi eshitilar emish.

– Ajabo! – debdi shoh. – Bolg'a urishi
temirchimas, zargarnikiga o'xshaydi.

– Bu kim bo'ldi ekan tirikchiligi uchun
kunduz kuni yetmasdan, tunda ham orom
olmay ishlayotgan kimsa? – debdi vazir.

– Qani, ko'raylik-chi, – debdi shoh.

Kulba eshigini sekin taqillatishsa, u
ochilib ketibdi – qulflanmagan ekan-da.

Ichkaridan 40-45 yoshlardagi bir
yigit chiqib, ularni mehmonxonaga taklif
qilibdi. Oldilariga g'aribona dasturxon
yozib, ikkita zog'ora non va bir siqim
jiyda aralash turshak qo'yib, qora



NASIBA

(ERTAK)

3

qumg'onga olov yoqibdi.

– Usta, ovora bo'lmang.

– Ovorasi bor ekanmi. Musofirga
o'xshaysizlar.

– Ha. Usta, bola-chaqalar ko'pmi
deyman? Kunduz kuni yetmagandek,
kechasi bilan ham tinmayapsiz?

– Ha, endi, tirikchilik deganlaridek.
Kunduz kuni bosqonlarni ishlatam,
kechalari qo'ni-qo'shning tinchini
o'ylab, bolg'acha bilan qilinadigan
ishlarni bajaraman. Xudoga shukr,
uchta farzandim bor, hammasi qiz. Bu
yog'i fasli kuz – keksalik ham eshik
qoqaman deb turibdi. Qarilik g'amini
yeb, 4-5 tanga jamg'arib qo'yamasam

4

bo'lmaydi. Qiz degani – palaxmon
toshi...

– To'g'ri aytasiz, – debdi shoh.

– Qarilik hammaning boshida bor
savdo. Ertasini o'ylagan odam kam
bo'lmaydi, – debdi vazir.

Ular bir piyoladan choy ichishib, bir
turshakni ikki bo'lib og'izga solgach,
o'rindan turishibdi. Temirchi bir kecha
mehmon bo'linglar, deb qancha iltifot
qilmasin, musofirxona – karvon-
saroyning yo'lini ko'rsatib qo'yishini
so'rab, u bilan xayrlashib ketishibdi...

Qadam Sayid MUROD

(Davomi bor)

Mana, yangi o'quv yili ham boshlandi. Prezident bobolaridan olgan portfellarini ko'targancha maktabga oshiqayotgan jazzi kichkintoylarning quvonchlarini cheksiz. Xursandchilikdan ko'zlari porlab turgan qizaloqlardan biri Maftuna Ubaydullayevani suhbatga tortdik:

BOBOMDAN SOVG'A OLDIM...

– Maftunaxon, maktabga nima uchun boryapsan, sovg'a olish uchunmi?

– Ilgari opalarim o'qishga borishganida, ularga havas qilardim, maktabni juda yaxshi ko'raman. Sovg'a olishga kelsak, albatta, hamma bolalarga ham sovg'a olish yoqsa kerak, deb o'ylayman. Maktabga borishim uchun Dildora opajonim menga maktab formasini-yu o'quv qurollarining eng chiroylilaridan olib bergandilar. Ular qancha ko'p bo'lsa, shuncha yaxshi, o'quv qurollarimni, darsliklarimni asrab-avaylab ishlataman...

Maktab ostonasiga dadil qadam qo'yayotgan 1-sinf o'quvchilariga qo'shaloq bayram muborak bo'lsin, deymiz.

Manzura TEMUR qizi



IJOD IRODANI MUSTAHKAMLAYDI

Bir kuni darsda Munojatxonning ustoz: «Jismoniy mashqlar kishining jism-u tanini sog'lom olib yursa, fikrlash – ruhini sog'lom olib yuradi», degan fikrni aytgan edi. Yana fikrlash – insonning irodasini mustahkamlar ekan. Shundan so'ng, Munojatxon she'r, hikoya va maqolalar yozishga qiziqib qoldi. Chunki ijod irodani mustahkamlar ekan. Shifokor bo'lish orzusidagi qizning irodasi kuchli bo'lishi kerak-da.

O'qituvchilarning gapidan keyin ko'pchilik sinfdoshlari ham ijod qilishga kirishishd-yu, ammo bir-ikkita narsa yozishgach, tashlab qo'yishdi.

Munojatxonning odati esa bir ishga kirishgach, uni oxirigacha yetkazmasdan qo'ymasdi. Nimaiki ish qilsa, chin dildan, g'ayrat bilan bajarardi.

Yozish oson emas ekan. Dastlab fikrlari tarqoq, gaplari bir-biriga bog'lanmagan, bir xil so'zlar nihoyatda ko'p takrorlangan maqolalar yozar edi. Ko'p kitob o'qish bilangina bunday kamchiliklarni bartaraf etish mumkinligini o'qituvchilaridan bilgach, yangi kitoblar, gazeta-jurnallarni ham muntazam o'qishga kirishdi.

Avvaliga yozganlari biror gazeta yoki jurnalda bosilmadi. Shunga qaramay, yozishdan to'xtamadi, qayta yozishdan erinmadi. Nihoyat, ijod namunalari birin-ketin gazeta va jurnallarda chop etila boshladi. Munajat ijod olamiga shu tariqa kirib bordi.

Tursunali YUSUPOV,
Farg'ona viloyati, Rishton tumanidagi
33-maktabning tarix fani o'qituvchisi



MAKTAB OSHXONASI:

UNDA NIMALAR SOTILISHI MUMKIN EMAS?

Respublikamizdagi barcha umumta'lim maktablarida o'quv mavsumi boshlandi. Darslar bir-biridan qiziqarli, hayajonli o'tilishi turgan gap. Tanaffus paytlarida o'quvchilar biroz tamaddi qilish uchun maktab oshxonasiga shoshilishadi. Oshxonada esa bolakaylarning yengil nonushta qilib olishlari uchun o'ta sifatli ovqatlar bo'lishi shart.


Xo'sh, maktab oshxonasida qanday oziq-ovqatlar sotilishi mumkin emas?!

O'zbekiston Respublikasi Davlat Bosh sanitariya vrachining 8-sonli qaroriga asosan umumta'lim muassasalarida quyidagi oziq-ovqatlar sotilishi man etiladi:

- gamburger, chizburger, xot-dog, bulochka orasiga solib pishirilgan sosiska, kolbasa mahsulotlari;
- uy sharoitida tayyorlangan quymoq va tvoroglar;
- tvorogli va qiymali blinchiklar;
- gazlangan salqin ichimliklar;
- qovurilgan kartoshka parrachalari (chipsi);
- davlat ro'yxatidan o'tmagan xo'jaliklarda yetishtirilgan va qobig'i iflos bo'lgan tuxumlar;
- quritilgan non bo'lakchalari (kiriyeshki, xrustyashki);
- avvaldan, bir kun oldin tayyorlangan oziq-ovqat mahsulotlari;
- nazoratdan o'tmagan go'sht, baliq, parranda mahsulotlari;
- iste'molga yaroqsiz holatdagi sabzavotlar;
- muddati ko'rsatilgan yorliqsiz, shakli o'zgargan, zangla-

gan dudlangan mahsulotlar;

– uy sharoitida tayyorlangan har



qanday oziq-ovqat mahsulotlari;

– kremli va qandolat oziq-ovqat mahsulotlari;

– uy sharoitida tayyorlangan turli xildagi sharbatlar;

– ombor zararkunandalari tomonidan ifloslangan dukkakli yormalar, un, quruq meva mahsulotlari;

– chorva tuyoqlari va qushlardan tayyorlangan xolodets mahsulotlari hamda hasip, kalla go'shtidan tayyorlangan taomlar;

– noma'lum xo'jaliklar tomonidan tayyorlangan sut va sut mahsulotlari;

– termik ishlov berilmagan, qaynatilgan kolbasa mahsulotlari;

– yog'da pishirilgan mahsulotlar (gumma, paramach, perashkalar);

– uksus, achchiq qalampir, murch va boshqa achchiq ziravorlar;

– gazakli konservalar, achchiq sous, ketchup, mayonez, uy sharoitida qadoqlangan meva va sabzavot

mahsulotlari, yuqori quvvatga ega ichimliklar va kofe;

– turli xildagi saqichlar (jevachkalar);

– o'ralmagan karamel va shirinliklar;

– kuksi, ayron va okroshkalar;

– go'sht qiymasi, tuxum bo'laklari solib tayyorlangan makaron taomlari;

– yarim tayyor oziq-ovqat mahsulotlari asosida tayyorlangan birinchi va ikkinchi taomlar.

Qadrli o'qituvchilar va o'quvchilar! Yuqorida nomlari sanab o'tilgan taomlar va boshqa oziq-ovqat mahsulotlari maktab oshxonasida sotilsa, joylardagi sanitariya vrachlariga murojaat qiling.

Nargiza ABDULLAYEVA
tayyorladi

TADBIR KO'NGILDAGIDEK O'TDI

Eng ulug', eng aziz bayramimiz arafasida bizning azim shahrimiz Buxoro shahrida ham ko'plab ajoyib tadbirlar bo'lib o'tdi. «Kamolot» yoshlar ijtimoiy harakati tomonidan tashkil etilgan «Yagona va muqaddassan, mustaqil Vatani!» shiori ostidagi bu tadbir o'quvchi-yoshlarning chinakam bayramiga aylanib ketdi. Shahrimizda barpo etilgan «Ko'hna va boqiy Buxoro» majmuasidan o'rin olgan yangi amfi-teatrda o'tkazilgan bu tadbirda taniqli xonandalar,


yozuvchilar ishtirok etishdi. Jumladan, taniqli yozuvchi Omon Muxtor, mashhur shoir Bobur Bobomurod, xalqimiz nazariga tushgan aktyorlardan Tolib Mo'minov, Mehriddin Rahmatov, Ulug'bek Yusupov hamda xonandalardan Erkin Ro'zmetov va Shirina yig'ilganlarni bayram bilan qutladilar. «Kamolot» tashkiloti tomonidan o'tkazilgan bir qator tanlovlarning g'oliblari va faol ishtirokchilari ham taqdirlandilar. Shahrimizning yosh xonandalari va «Buxoro go'zallari» raqs guruhi tomonidan tayyorlangan konsert dasturi barchani xushnud etdi.

Ajddolarimizning asriy orzulari Istiqlolning 20 yilligi arafasida tashkillashtirilgan bunday tadbirlarning yoshlarni vatanparvarlik, farovon hayotga shukronalik, g'urur va iftixor tuyg'ulari ruhida tarbiyalashda o'rni beqiyosligini e'tirof etish joiz.

Mukarram BOTIRALI qizi,
Buxoro Davlat universiteti
qoshidagi

1-son akademik litsey o'quvchisi





Aziz bolajonlar! Siz jurnalist Tahir aka Mullaboyevni yaxshi tanisiz. Ular, mana 40 yildirki, «Zangori ekran» orqali «Yashil chiroq» ko'rsatuvini olib boradilar. Bu davr mobaynida bolajonlar orasida yo'l harakati qoidalarini keng targ'ib qilib, qanchadan-qancha baxtsiz

YO'L QOIDASI – UMR FOYDASI

hodalarning oldini olishdek xayrli ishga hissa qo'shib kelyaptilar. Ushbu ko'rsatuv orqali maktablarda yo'l harakati qoidalarini o'rgatish bo'yicha 17 soatlik dars joriy qilindi. Ta'lim maskanlarida, bog'chalarda, bolalar oromgohlarida yo'l harakati qoidalarini o'rganish va amaliy mashg'ulotlar o'tkazish uchun avtomaydonchalar tashkil etildi va muntazam ravishda «Yashil chiroq» musobaqalari o'tkazilayapti. Ushbu tadbirlarni o'tkazishda Tahir akaning «Svetofor», «Ko'cha bo'ylab, yugrin o'ylab», «Yo'l qoidasi – umr foydasi» nomli kitoblari juda qo'l kelyapti.

Yaqinda Tahir akaning «Yo'llarimiz bexatar bo'lsin desangiz» nomli yana bir kitobi «O'zbekiston» nashriyot-matbaa ijodiy uyida chop etildi.

Ushbu qo'llanmada 1-8-sinf o'quvchilari orasida yo'l harakati qoidalarini o'rgatish borasida olib borilayotgan tadbirlar, «Harakat xavfsizligi» xonasi va uni jihozlash, yo'l harakati nazoratchilari guruhleri va uni tashkil etish, bolalarga yo'l harakati qoidalarini o'rgatishda ot-onalarning vazifalari, yo'l transport hodisalarida birinchi tibbiy yordam berishga oid maslahatlar haqida fikr

yuritilgan.

Qadrlil bolalar! Ko'chalarimizda transportning kundan-kunga ko'payib borayotganligi, ko'chalarning serqatnovligi Sizdan yo'l harakati qoidalariga qat'iy rioya qilishingizni talab etadi.

Bu borada sizga yordam berish maqsadida «Tong yulduzi» gazetasida «Yo'l qoidasi – umr foydasi» nomli rukn tashkil qilinib, unda yo'l harakati qoidalariga oid maslahatlar, tavsiyalar berib borishga qaror qilindi.

Ushbu ruknni keksa jurnalist Tahir Mullaboyev olib boradi.

YO'LDAN O'TISH QOIDALARI

Birinchi saboq

Piyodalar ko'cha va yo'llarda baxtsiz hodisalarga uchramasliklari uchun yo'laklarning o'ng tomonidan, ular bo'lmaganda esa yo'l yoqasidan yoki velosiped yo'lkasidan (agar bu velosiped harakatiga xalaqit bermaydigan bo'lsa) yurishlari kerak.

Kolonna bo'lib yuritilganda, yo'lning qatnov qismining o'ng tomonidan kolonna qatorini to'rtadan oshirmasdan harakatlanishiga ruxsat etiladi. Bunda kolonnaning oldida va orqasida kuzatib boruvchi kishilar qizil bayroqchalar ko'tarib, kolonnaning chap tomonida borishlari, qorong'ida esa oldinda oq, qora, qizil rangli chiroqcha yoqib borishlari kerak.

Bolalar guruhlarini faqat piyodalar yo'lkasidan, ular bo'lmaganda esa yo'l yoqasidan kunning yorug' paytlaridagina va faqat katta yoshdagilar kuzatuvida olib yurishga ruxsat etiladi.



«Avtomobildan ehtiyot bo'!» deb yozilgan ko'rsatkichlarga e'tibor berish kerak. Shunday ko'rsatkichlar ilingan joyda sezgir bo'lish lozim. Chunki bunday joylarda transportlarning bexosdan chiqib qolishi xavfi bo'ladi. Yo'lga yugurib chiqish mumkin emas. Yugurib yo'lga chiqib qolgan kishi o'zini birdan to'xtata olmaydi va natijada u kelayotgan transport ostida qolishi mumkin. Buning oldini olish uchun piyoda yo'lga chiqayotib, yaqinlashib kelayotgan transportning yo'qligiga to'la ishonch hosil qilgandan keyingina harakatni davom ettirishi mumkin.

Yo'llardan o'tish piyodalardan, ayniqsa, ehtiyotkorlikni talab etadi. Piyodalar yo'lning bir tomonidan ikkinchi tomoniga ular uchun qurilgan yer osti va usti o'tish joylaridan, ular bo'lmaganda esa, chorrahalaridan svetofor chiroqlari va harakatini tartibga soluvchining harakatlariga amal qilgan holda piyodalar o'tish joylaridan o'tishlari kerak.

Tahir MULLABOYEV

BAXTIYOR QIZMAN

Men tabiati go'zal, musaffo Kegayli tumanida joylashgan Aqtuba ko'li bo'yidagi so'lim qishloqda voyaga yetyapman.

Misli ko'rilmagan ajoyib yangilanishlar amalga oshirilayotgan diyorumizda mendek yosh ijodkorlar uchun yaratilayotgan shart-sharoitlar, imkoniyatlarning barini sanab o'tish biroz mushkulroq.

Shuning uchun ham men o'zim ta'lim olayotgan maktabimizning yutuqlari haqida qisqacha to'xtalib o'tmoqchiman. Chekka qishloqdagi ta'lim maskanimiz 2009-yili tubdan qayta ta'mirlandi. Yangi sport zali qurilib, zamonaviy sport jihozlari bilan ta'minlandi. U yerda ko'plab sport to'garaklari bilan bir qatorda O'zbekistonning bir necha bor chempioni bo'lgan Jaqabay polvon Saparovning nevarasi Srijatdin Jaqabayev rahbarligida

milliy kurash to'garagi ham faoliyat yuritmoqda.

Hozirda Qoraqalpog'iston Respublikasi teleradiokompaniyasida qishloq yoshlarining hayotiga oid qator ko'rsatuvlar namoyish etilmoqda. Unda asosan shu qishloq yoshlarining o'zlarini ishtirok etishadi. Ko'plab qishloq bolalari qatorida men ko'rsatuvlarga jalb qilindim.

Bugungi kunda «Kitoblar olami» rukniga boshlovchilik qilyapman.

Mustaqilligimizning 20 yillik bayramiga tuhfa sifatida «Aqtubaning qiziman» nomli she'riy to'plamim nashr etildi.

Men bu yutuqlarim bilan aslo cheklanmoqchi emasman. Kelajakda maktabdagi ta'limni chuqur o'zlashtirib, chet tillarni o'rganib, ota-onam, maktabim, tumanim, ona Vatanim oldidagi farzandlik burchimni sidqidildan bajarishdek orzularim bor.

Oyjamol KARAMATDINOVA,
Qoraqalpog'iston Respublikasi Kegayli tumanidagi II-umumta'lim maktabining 7-sinf o'quvchisi



Javohir bejiz maqom yo'nalishini tanlamadi. So'lim Qashqadaryoning bepoyon dasht-u dalalari uni hududsiz kuy olamiga oshno aylagan bo'lsa, ajabmas. Bobolari bir paytlar qirlarda qo'y boqib, xirgoyi etgan qo'shiqlar ohangi uning qalbiga ko'chmaganida, balki bu yo'lni tanlamagan bo'lardi. Insonning hayot yo'li bevosita u yashagan muhit bilan uzviy bog'liq. Shuning uchun bo'lsa kerak, Javohir maqom yo'nalishida o'z yo'lini tez topdi.


1992-yil Qashqadaryo viloyatining Qarshi shahrida tavallud topgan yosh iste'dod egasining otasi Alisher aka garchi tadbirkor bo'lsa-da, o'g'lining tanlagan yo'lidan behad quvondi. Maktabda o'tkazilgan tadbirlarning birida qo'shiq kuylagan Javohirning ovozi, ijro mahorati Qarshi madaniyat kolleji o'qituvchisi A'zam Akramovning e'tiborini tortdi va unga ustozlik qila boshladi. San'atga bo'lgan cheksiz qiziqishi uni Toshkent madaniyat kollejiya yetakladi. Ayni kunda bu dargohda unga maqom sirlarini o'rgatishda Nozimboy Musayev,

JAVOHIRNING JAVOHIRLARI

cholg'udan Najotxon To'raxo'jayeva rahbarlik qilishmoqda. Konservatoriya o'qituvchisi Xurshid Oripovdan maqom sirlarini o'rganmoqda. Javohirning yagona orzusi kelajakda O'zbek Davlat konservatoriyasida tahsil olib, xalqimizning milliy boy madaniyatini o'zining noyob javohirlari bilan to'ldirish.

Unga omad yor bo'lsin, deymiz.
Axtamqul KARIM

YAXSHI



450 SAVOLGA HUQUQIY JAVOB

Aziz bolajonlar! Har bir inson o'z haq-huquqini yaxshi bilishi muhimligini bilasiz-a? Jamiyatda huquqiy madaniyatni

KITOBBLAR

yuksaltirish milliy Dasturida o'quvchilarga hamda aholining ayrim guruhlarga mo'ljallangan ommabop adabiyotlarni nashr etishni ko'paytirish va aholini yuridik axborotlar bilan ta'minlashni yaxshilash, huquqiy madaniyatni oshirishning eng muhim yo'nalishlaridan biri, deb ko'rsatilgan. Shu maqsadda Ra'no Turdiboyeva hamda Dilshod Alimov muallifligida «O'z huquqlaringizni bilasizmi?» risolasi nashr etildi. Bu risola o'quvchi-yoshlar uchun mo'ljallangan bo'lib, ularning huquqiy ongi va madaniyatini yuksaltirish maqsadida yoshlarni qiziqtirgan 450 savolga mutaxassislarining 450 javoblari aniq, huquqiy manbalar asosida tayyorlangan.

Risola nafaqat yoshlarga, balki o'qituvchilar, ota-onalar hamda huquq sohasiga qiziquvchi keng kitobxonlar ommasiga mo'ljallangan. Ushbu kitob yaqinda «Vektor-press» nashriyotida 1000 nusxada chop etildi.

Dilorom HOTAMOVA

BOR

HARAKATI MULOYIM

Faqat sarlavhamizga e'tiroz bildirmang, aziz bolajonlar!

– Iye, tramvayning ham harakati muloyim bo'ladimi? – deya ajablanmang ham...

Agar ana shu fikringizda qol-sangiz, aytib qo'yay, sizga aytmoqchi bo'lgan xushxabarimizdan so'ng uyaliq qolasiz-da!

Keling, gapni cho'zmaylik.

Yaqinda go'zal va ko'rkam poytaxtimiz ko'chalarida Chexiyaning «Pragoimex a.s.» «Vario LF» rusumli dastlabki ikki tramvay sinovdan o'tkazildi. Salonning ichi yorug'ligi, shinamligi, o'rindiqlarining bejirimligi bilan barchaning diqqatini tortmoqda. Ayniqsa, shovqin sezilmasligi va harakatining muloyimligidan tramvayga chiqqan kishining hech tushgisi kelmaydi.



Yurtboshimiz g'oyalari va tashabbuslari asosida kundan-kunga yangilik, yangilanish. Diyorimizda yangi yo'llar, ko'priklar va muhtasham binolar qad rostlayotgan yurtimiz ko'chalariga yarashib turgan uchqur tulporlarning yo'li hamisha bexatar bo'lsin!

G'OLIBA

KO'ZGU SIRI

Ko'zguni kim ham yoqtirmaydi, deysiz? Ayniqsa, qizaloqlar unga tern'ulib, chiroylarini tomosha qilishni yaxshi ko'rishadi, shundaymi?

Qiziq, qadim zamonlarda ham ko'zgu bo'lganmikan? Odamlar kumush bilan qoplangan taxtachaning yuzasini yaxshilab silliqlab, undan ko'zgu sifatida foydalanishgani tarixdan ma'lum. Ammo bunday ko'zgu juda qimmatga tushishi bilan birga tezda xiralashib qolgan ekan.

Bugungi kunda bir-biridan chiroyli ko'zgular dilimizni yayratadi. Kuniga bir necha marta qarab, tashqi ko'rinishimizni tartibga keltiramiz.

Darvoqe, nega ko'zga aksimiz ko'rinadi? Bu savolga hech javob izlab ko'rganmisiz? Unda qanday sir bor?

Bu savolimga javobni yuqorida deyarli aytib o'tdim.

Qani, toping-chi, qadrlil bilag'onlar...



ALISHER

ISHCHAN KAPALAK

Kapalak uchib yurib, o'n oltita gulga qo'nibdi. Yuqoridan pastga, pastdan yuqoriga va qiyalamasiga Naqadar ishchan ekan u! Bu gullarning nomi yozilgan. Ularni toping. Oson bo'lishi uchun to'rtinchi kapalakning ichida o'ngdan chapga, chapdan o'ngga, qator, oltinchi ustundagi A harfidan boshlang.



Bu qiziq! DAHOLAR YOSHLIGIDA...

*Ibn Sino to'rt yoshida Qur'onni to'liq yod olgan.

*Aleksandr Tolstoy olti yoshida fransuz, nemis, ingliz tillarini yaxshi bilgan.

*«Aqlilik balosi» asari muallifi Aleksandr Griboyedov o'n bir yoshida universitetga o'qishga kirib, olti yilda oliy o'quv yurtining uchta fakultetini bitirgan.

*Chingiz Aytmatov besh yoshida tarjimonlik qilib, qalam haqi olgan.

*Zahiriddin Muhammad Bobur o'n ikki yoshida taxtga o'tirgan.

*Gyote to'qqiz yoshida nemis, lotin va grek tillarida she'rlar yozgan ekan.

*Paskal o'n besh yoshida ilmiy ishini himoya qilgan.


*AQSHning Kanadadagi elchisi bo'lgan Shirli Temil to'rt yoshida filmda suratga tushgan va olti yoshida «Oskar» mukofotini qo'lga kiritgan.

*Atoqli olim S.Mergelyan bir o'quv yilida 8-,9-,10-sinflarning imtihonini topshirgan. 16 yoshida universitetning 2-bosqichiga qabul qilingan. Bir yarim yilda nomzodlik ishini yoqlab, 20 yoshida fan doktori bo'lgan.

DILOROM tayyorladi

- Atirgul
- Rayhon
- Jambil
- Chinnigul
- Kapalakgul
- Moychechak
- Binafsha
- Lola
- Chuchmoma
- Astra
- Qo'qongul
- Kartoshkagul
- Gulbeor
- Pechakgul
- Bo'tako'z
- Gulsafsar

TOPSHIRIQLI AYLANMA SKANVORD



Javoblarni so'zlar ta'rifi yozilgan aylana atrofiga belgilangan xonadan soat mili yo'nalishida yozing.

Skannovrdni to'g'ri hal etgan bo'lsangiz, shaklning ichki qismlari aylanalaridagi raqamlarni javoblar yozilgan raqamli xonalardagi mos harflar bilan almash-tirib, topshiriqni hal eting. Bunda ularni yo'nalish bo'yicha o'qisangiz, turli sohalarga oid beshta fan nomlari ayon bo'ladi.

Tuzuvchi: Foziljon ORIPOV

QIZIQARLI MASALALAR

1. Do'kondagi mahsulotlarning bahosi dastlab 10% oshirildi. So'ngra, 10% ga kamaytirildi. Mahsulotning boshlang'ich bahosi qanchaga o'zgaradi?

2. 17, 23, 13, 11, *, 15, ... ketma-ketlikdagi (*) o'rniga qo'yiladigan sonni toping.

3. O'z raqamlari ko'paymasining ikkilanganiga teng bo'lgan ikki xonali sonni toping.

4. Muntazam beshburchak o'zining diagonallari bilan 11 bo'lakka bo'lingan. 1 dan 11 gacha bo'lgan sonlarni shunday joylashtiringki, barcha uchburchaklardagi sonlar yig'indisi teng bo'lsin. Uchburchaklarning uchlari beshburchak uchlari yotadi.

NARGIZA tayyorladi



Bir bolakay ko'z shifokori huzuriga kelib, ko'zining yaxshi ko'rmayotganidan shikoyat qilirdi:

Shifokor unga mayda harflarni ko'rsatganida ko'ribdi-yu, yiriklarini ko'rolmabdi. Bolakaydan sababini so'rashganida: «Yirik harflar ko'zimga sig'mayapti», deya javob berirdi.

Kumushoy ABDURAZZOQOVA,
Toshkent viloyati, Bekobod tumanidagi
46-maktab o'quvchisi



BOSH MUHARRIR:
To'loqin HAYITOV

Dizaynerlar:
Fazliddin SHOYODGOROV,
Olovuddin ORIPOV
Rassom:
FeruZ MATYOQUBOV
Navbatchilar:
Ma'mura MADRAHIMOVA,
Yusuf ABDULLAYEV

Gazeta
O'zbekiston
Matbuot va
axborot
agentligida
0208-raqam
bilan 2007-yil
2-fevralda
ro'yxatdan
o'tgan.

TAHRIR HAY'ATI:
Svetlana INOMOVA,
Odina JAMOLDINOVA,
Jahongir MUSAYEV,
Jabbor RAZZOQOV,
Murtazo SULTONOV,
Feruza JALILOVA
(Bosh muharrir o'rinbosari),
Feruza ADILOVA
(mas'ul kotib),
Dilmurod RAHMATILAYEV,
Dilshoda DADAJONOVA

Manzillimiz:
Toshkent shahri,
Navoiy ko'chasi, 30-uy.
Indeks: 100129.
Obuna indeksi: 198.
e-mail: tong1924@bk.ru
www.tongyulduzi.uz
Tel: 244-27-25, 244-63-08
Tel./faks:
(99871) 244-38-10

«O'zbekiston»
NMIUda chop etildi.
Tahririyatga kelgan barcha
qo'lyozmalar tahrir qilinadi,
mualliflarga qaytarilmaydi.
Haftaning dushanba kuni
chiqadi. Shakli A-3,
2 bosma taboq.
ISSN 2010-6092
Adadi - 31984
Buyurtma N: J 2671

Muassislari:

O'zbekiston Matbuot va axborot agentligi,
O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi,
«KAMOLOT» yoshlar ijtimoiy harakati Markaziy Kengashi,
«SOG'LOM AVLOD UCHUN» hukumatga
qarashli bo'lmagan Xalqaro xayriya jamg'armasi.